

S.ZOHIDOVA

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDА  
INTERFAOL TA’LIM  
STRATEGIYALARIDAN  
FOYDALANISH**

TOSHKENT

SAMARQAND VILOYAT PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI  
OSHIRISH INSTITUTI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM  
KAFEDRASI

S. ZOHIDOVA

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA  
INTERFAOL TA'LIM  
STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*(O'quv qo'llanma)*

TOSHKENT – 2016

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
ToshDO'TAU  
AXBOROT-RESURS MARKAZI

**UO'K: 373.31:004.031.42 (072)**

**KBK 74.263.2**

**Z-85**

- Z-85 S.Zohidova. Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'limg strategiyalaridan foydalanish. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 52 bet.**

**ISBN 978-9943-11-335-0**

Ushbu o'quv qo'llanma boshlang'ich ta'limg darslarni samaradorligini oshirish maqsadida tayyorlangan. Unda inovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar, innovatsion texnologiyalar qo'llangan dars-ishlanmalardan namunalar berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilar zamonaviy darslarni tashkil etishda, kasb mahoratlarini oshirishda ushbu qo'llanmadan foydalanishlari mumkin.

**UO'K: 373.31:004.031.42 (072)**

**KBK 74.263.2**

***Taqrizchilar:***

**F. Shodiyev** – SamDU «Boshlang'ich ta'limg metodikasi» kafedrasi mudiri;

**T. Tolipova** – Samarqand VPKQTMOI maktabgacha va boshlang'ich ta'limg kafedrasi katta o'qituvchisi.

*Qo'llanma Samarqand viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy Kengashining qurori bilan nashr etildi.*

**ISBN 978-9943-11-335-0**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

## KIRISH

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim berishning yangi usullarini izlab topish va uni tadbiq qilish borasida ko'p aytilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ikkinchi bosqichi uzlusiz ta'lim jarayonining zamонавији uslublaridan foydalanish, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini tubdan yaxshilash va kengaytirishga qaratilgandir. O'qitishning yangicha o'quv uslubiy jihatlarini, samarali sohalarini izlash, uni o'quv jarayoniga tatbiq etish, shu asosda o'quvchilarning fan sohasidagi bilimlarini yanada mustahkamlash bugungi kun talabidir.

Bunda deyarli barcha o'quvchilar qatnashadilar va harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar nimadir o'r ganadilar. Bunda hamma harakat qiladi, a'lochi ham, o'rtal o'quvchi ham, ulgurmovchi ham sergak tortadi. Chunki sinfda o'tirgan bolajonlar yaqinginada o'yinlar olamidan kelgan. Agar o'qituvchi ta'limiy o'yinlarni o'ylab, qiziqarli qilib o'tkazsa, bolada «hayratlanish» tuyg'usi uyg'onadi, ta'lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o'quvchilarning yodidan chiqmaydi va o'yindan ko'zda tutilgan maqsad shakllana boradi. O'yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviydir. Ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalarda o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar o'yin orqali o'zlashtiriladi. Bolalarga singdirilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar orqali axloqiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatlar shakllantiriladi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarni o'qitish, ularda milliy va umuminsoniy tarbiya elementlarini shakllantirish, zamонавији boshlang'ich ta'lim jarayonida o'z ifodasini topishi kerak. Boshlang'ich ta'lim jarayonida turli usullardan foydalilanadi. Lekin bir usul borki, bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlaydi, darsning mana shu jarayoni «o'yin» deb ataladi.

Ta'limiy o'yinlarning bir necha turlari mavjud. Ular grammatik, diduktiv topishmoqli, muammoli o'yinlardir.

Hozirgi vaqtida izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib, samarali natijalarga erishmoqdalar. Didaktik o'yinli dastur yangi niavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'ymlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqanidan so'ng omma-viy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki, o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lislchlari zarur. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab, loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham, fikr yuritgani, mehnat qilgani ma'qul.

Bolaning bilish faoliyati kichik yoshdanoq boshlanadi. Faqat u davrda bilish faoliyati o'yinlar asosida quriladi. Maktab hayoti tashqi va ichki

jihatlari bilan oila yoki bog'cha sharoitidan farq qiladi. Birinchi sinfga kelgan bola maktabni his etadi, lekin bu jarayonga moslasha olmaydi. Ana shuning uchun ham bolaga o'yin erqali bilim berishni amalga oshirish kerak. Bolalarga faqat jiddiy dars o'tish, ustma-ust nazariy bilimlar berish, qoidalar bilan qurollantiraverish, ularni zerikishga olib keladi. Aqliy zo'riqishdan charchagan bola o'qimay qo'yadi. Shu sababli bolalarga o'yinlar yordamida tinimsiz ravishda fikr yuritishga undash, hayolot olamiga sayr qildirish, aqliy zo'riqishlarsiz istagan yo'llar bilan o'zlarini-o'zlar tarbiyalashlariga ko'maklashishimiz lozim.

Boshlang'ich sinflarda ishslash jarayonida o'ylashga, yangi o'quv vositalarini izlab topishga, ijod qilishga to'g'ri keladi. O'yinlarning jozibali nomlari bolalarni diqqatini tortadi, ularni charchatmaydi, darsga nisbatan ijodiy hissiyotlar uyg'otadi. Ularни dars o'rtaida, oxirida yoki boshlanishida ham kiritish mumkin, bunda mavzuni o'yining maqsadi va xarakterini hisobga olgan holda tanlash lozim.

«Texnologiya» atamasi yunoncha bo'lib, «texne» - mahorat, san'at, «logos» - tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi. O'qish – o'quvchi tomonidan qilinadigan ishlar, o'qitish (o'qitish faoliyati) jarayonining o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi, bosqichma-bosqichligi ta'minlanishini, loyihalash-tirilgan, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarish nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirishni (ya'ni eng qulay usullarni topishni) o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan holda o'qitish (o'quvchi faoliyati) va bilimlarni o'zlashtirish (o'quvchi faoliyati) jarayonini texnika vositalari, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olgan holda belgilash va tashkil etish metodlari tizimidir.

O'qitish metodi ta'lim oluvchi va o'qituvchining o'qitish jarayonidagi o'zaro aloqa shaklidir. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi jarayon aslida o'quvchini u yoki bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish maqsadida bog'lab turganligini ko'rsatib turadi. Agar keng ko'lamda oladigan bo'lsak, o'qitishning birinchi kunlaridan to shu kungacha o'qituvchi va o'quvchi orasidagi keng ma'noda uch xil bog'lanish shakllangan bo'lib, u o'z tasdig'ini topgan. Ko'rinish turibdiki, uslubiy yondashuvda o'qituvchining metodini uch guruhga bo'lishiimiz mumkin:

1. Nofaol metod.
2. Faol metod.
3. Interfaol metod.

Ko'rsatib o'tilgan har bir uslubiy yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega. Quyida biz uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga asosiy diqqatimizni o'qituvchining interfaol usullariga qaratamiz.

Nofaol uslubiy yondashuv – bu o'quvchi bilan o'qituvchi orasidagi bog'liqlik shaklidir. Bunda o'qituvchi darsning asosiy tarkibatiningchi figurasi hisoblanadi, o'quvchilar esa nofaol eshituvchi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur metod darslardagi tezkor mustaqil sayol-javoblarda, mazurat ishlarida, test va boshqa usullarda aks etadi. Nofaol metod o'quv shuning o'quv materialini o'zlashtirishlaridagi eng samarasiz usul hisoblanadi, lekin uning o'ziga xos ijobiy tomoni mavjud. Bu xildagi darslurga ko'p mohmat talab qilinmaydi. Chegaralangan vaqt oralig'ida katta miqdordagi o'quv materialini topishga imkon beradi. Bu dars turi oliy o'quv muassasalarida keng tarqalgan bo'lib, keng yoyilgan shakli – ma'ruzadir.

Faol uslubiy yondashuvda o'qituvchi bilan o'quvchi bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchi nofaol tinglovchi emas, balki darsning faol ishtirokchisiga aylanadi. Agar nofaol dars metodida asosiy harakat qiluvchi figura o'qituvchi bo'lgan bo'lsa, bu metoddha o'quvchi va o'qituvchi teng huquqqa egadir. Nofaol darslar o'qitishning avtoritar uslubiga ega bo'lgan bo'lsa, faol metodlar demokratik uslubga egadir. Faol va interfaol yondashuvlarda esa umumiylik ko'proq ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, interfaol metodni ko'proq zamonaviy faol metodlarining shakli sifatida ko'rishimiz mumkin. Faol metodlardan farqli o'laroq, interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasimigina emas, balki o'qitish jarayonida ularning o'zaro bir-biri bilan faol munosabatda bo'lishlariga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Quyida biz mazkur metodni atroflicha ko'rib chiqamiz:

Interfaol «o'zaro ta'sir» ma'nosini bildiradi) uslubiy yondashuvda o'quvchilar bilish va o'rganish jarayoniga butunlay sho'ng'ib ketadilar, ular o'zları bilgan va o'yelayotganları xususida bahslashishlari ham mumkin. Interfaol darslar maqsadga erishish uchun yetarli zamin yaratadi. O'qituvchi dars rejasini tuzadi (qoida bo'yicha interfaol mashq va topshiriqlar o'quvchi o'zlashtirayotgan material bilan o'zaro bog'liq bo'ladi). O'quvchilar bajaradigan interfaol mashq va topshiriqlar uning asosiy tarkibi hisoblanadi.

Oddiy mashq va topshiriqlardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni bajarish jarayonida o'rganilgan material nafaqat mustahkamlanadi, balki yana yangilari ham olinadi. Shuningdek, bu mashq va topshiriqlar interfaol yondashuvga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogikada ham uning boy zahirasi to'plangan, shulardan quyidagilarni ajratib olamiz:

1. Ijodiy topshiriq.
2. Kichik guruhlar bilan ishlash.
3. Ta'limiy o'yinlar (rolli, maqsadli va bilim beruvchi o'yinlar).
4. Jamiyatdagi zahiralardan foydalananish (mutaxassis taklif etish, ekskursiyalar).

5. Ijtimoiy loyihamalar va auditoriyadan tashqari beriladigan ta’lim metodlari (ijtimoiy loyihamalar, radio va gazetalar, filmlar, saxna asarlari, qo’shiq va ertaklar).

#### 6. Razminka.

7. Yangi materialni o’rganish va mustahkamlash (interfaol ma’ruza, ko’rgazmali qurollar bilan ishlash, video va audio materiallar, «o’quvchi-o’qituvchi roldi», «bir kishi bir kishiga o’rgatadi»), mozaika (ajurali arra) savollardan foydalanish, diolog.

8. Murakkab va muzokara talab etiladigan savol va muammolarni yechish («fikr maktabi», «pozitsiyani egalla», «POPS» loyihalashtirilgan texnikalar, «bir o’zing, ikki kishi birgalikda», «pozitsiyani o’zgartir», «karuseb», «televizion tok shou uslubida munozara», debatlar, simpozium).

9. Muammo-yechim («yechimli daraxt», «aqliy hujum», «kazuslar tahlili», «kelishuvlar va mediatsiya» va hokazo).

Ijodiy topshiriqlar deganda biz shunday topshiriqlarni tushunamizki, bunda ishtirokchilardan nafaqat oddiy axborotni qabul qilish, balki unga ijodiy yondoshish ham talab etiladi. Chunki, berilgan topshiriqlar katta yoki kichik hajmdagi o’rganilmagan elementga, qoidaga ko’ra, bir necha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda interfaol metodlar nomi bilan kirib kelayotgan metodlar o’qituvchi-o’quvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o’quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko’nikma, malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, shu bilan birga, ularni nazorat qilish hamda baholash, o’qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab etadi.

O’quvchilarни mustaqil fikrlashga yo’naltiruvchi mantiqiy metodlar interfaol usullarda o’z aksini topadi. Dars berish usullari ta’lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir. Ta’limga muhokama va rivojlan-tiruvchi xarakter beruvchi, ta’lim oluvchilarni mahsuldar faoliyatini ta’minlovchi dars berish va o’qitish usullari – interfaol usullar deyiladi. Ana shunday interfaol metod va texnologiyalardan namunalar keltiramiz. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi «to’siq»ni yo’qotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o’quvchilari orasidagi o’zaro ishonch, hurmat, o’zaro yaqinlikni his etishga o’rgatish yotadi.

Sinkveyn va limeriklar - o’z talabiga ko’ra, 5-7 qatorдан iborat qofiyasiz, o’ziga xos she’r bo’lib, bunda o’rganilayotgan tushuncha to’g’risidagi axborot yig’ilgan holda, o’quvchi so’zi bilan turli variantlarda va turli qarashlar orqali ifodalaniladi.

#### Sinkveyn - quyidagicha tuziladi:

1.Ot – Vatan.

2.Sifat - Obod, go’zal.

3. Fe'l - Yashnaydi, ravnaq topadi, ruhlantiradi.

4. Gap - Biz uni juda sevamiz.

5. Sinonimi - Makon.

**Limerik** - quyidagicha tuziladi:

Kim? yoki Nima? – Gul.

Qanday? Qanaqa? – Go'zal, ta'sirchan.

Qayerdan? – Gulgordan.

Nima qilgan? – Unib chiqqan.

Nima bo'lgan? – Is-ifor taratgan.

Nima bilan tamomladi? – Go'zallik timsoliga aylangan.

**Klaster** – (lot. «g'uncha», «bog'lab») axborotlarni yoyish usuli bo'lib, undan foydalanish o'quvchilarning mavzuni tushunishlari uchun erkin, ochiq fikr yuritishlariga katta imkoniyat beradi. Eslatma: har bir taqdimotdan so'ng o'quvchilarga ko'tarinkilik ruhini berish uchun olqishlar bilan rag'battantirib borish zarur. Guruhlarga birlashtirayotganda, albatta, mavzu yoki davrdan kelib chiqib, nomlar berish ham maqsadga muvofiq. Ya'ni gullar, o'simlik, o'yinchoq, tarixiy shaxslar nomlari bilan nomlash tavsiya etiladi.

**Aqliy hujum** – bu metod asosida chegaralangan vaqt ichida aqning tezkor harakati orqali o'ziga xos muammo, vazifa xususida barcha ishtirokchilarning imkon qadar ko'proq g'oyalarni yaratishi yotadi, ya'ni topshiriq barcha uchun yakka holda bajarilib, fikrlar umumlashtirilib, bittasi ustida to'xtaladi. Ona tili darslarida «Ot» mavzusini o'tishda, bosh harflar bilan yoziladigan so'zlarga misol yozish topshirig'i beriladi, har bir o'quvchi o'zi misollar yozadi, belgilangan vaqt (2-3 daqiqa) o'tgach, guruhlarda (masalan, sinfda 46 ta o'quvchi bo'lsa, ularni 5-6 kishidan iborat guruh-largacha birlashtiriladi) yuqoridaq topshiriq yuzasidan guruh a'zolari fikrlarini mujassamlashtiradilar.

**Debat** – bu usulning maqsadi o'zaro bahs-munozara asosida mukammal yechim variantlarini yuzaga chiqarishdir.

**Gaplarni oxiriga yetkazish** – bu metod o'quvchiga o'z g'oyalarni ifodalash ustida ishlash, keyinchalik esa uni boshqalar bilan muhokama qilish imkonini beradi Bunda bir jumla yoki so'z berilib, uni mantiqan oxiriga yetkazish so'raladi, o'quvchi esa shu jummalarga mos so'z tuzadi.

**Davra suhbati** – ta'lim oluvchilar davra stolida o'tirib, bir-birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar yoki suhabatni olib boruvchi boshlovchi orqali savol-javobga kirishadilar.

**Guruhdagagi munozaralar** – qoida tariqasida boshqa texnika turlari bilan aralash qo'llanmadigan hammaga ma'lum usuldir.

**Katta guruhda muhokama** – bunda butun guruh bilan muayyan mavzuga doir bo'lgan g'oyalalar yoki hodisalar muhokama qilinadi. Muhokama rejalashtirilgan yoki uyushtirilgan mavzular atrofida o'tkaziladi. Katta guruhda muhokama metodi asosida 4-sinf «O'qish» darsidan «Yaxshilik»

mavzusini o'tishda: «Yaxshilik» sizningcha nima? so'rog'iga javob berish asosida katta guruhda muhokama qilinib, har bir ishtirokchining fikri eshitiladi va umumiy xulosa chiqariladi.

**Kichik guruhlarda muhokama** – mazkur o'quv tadbirida ixtiyoriy holatda masalani ko'tarish, muammoni muhokama qilish, hal etish, ko'tarilgan muammolar yechimini topish va g'oyalarni baholash uchun yig'ilgan to'rt-olti kishi ishtirok etadigan davra.

**Rolli o'yin** – drama yoki «qoyilmaqom qilib o'xshatish». Rollar ishtirokchilarga aynan mo'ljallanganligini va ularga «go'yoki chinakamiga» harakatlanish imkonini beradi.

**So'rvonomalar o'tkazish** – bilimlarni tekshirish va o'qitish jarayonini baholash uchun foydalaniлади.

**Boshqariladigan hayolotlar** – o'qituvchi tayyorlab qo'yan fantaziyasini o'qydi yoki guruhning o'zi shunday bir hayoliy holatni rivojlantiradi.

**Ijodiy mehnat** – rasm chizish, andozalash, qo'shiq, tarixlar, chizgilar yozish va o'yinlar o'ylab topishni mujassam etadi.

**Akvarium** – bu guruh ichida guruh tarzida tashkil etiladi, ya'ni sinf ikki guruhga birlashtiriladi, davraga bir guruh vakillari taklif etilib, berilgan savollarga javoblarini aytadilar. Ikkinchchi guruh esa, birinchi guruh a'zolarining ma'lumotlarini eshitadilar. Ular yakunlagach, yuqoridagi savol bo'yicha qolgan joylarini to'ldiradilar. Ikkala guruh bir - birlarining taqdimotlarini nazorat qilishlari so'raladi.

**O'yinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar** – kichik treninglar, o'yinlar, qo'shiq va she'rlar mazmuniga ko'ra harakatlar qilish asosida amalga oshirilib, o'yin, o'qish, mehnat kabi faoliyat turlaridan foydalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyat turi o'qish bo'lishiga qaramay, bir faoliyatdan to'la ikkinchisiga o'tish bolada qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, dars jarayonida turli ta'limiy o'yinlar qo'llangan holda darslar tashkil etiladi. Bular bilan bir qatorda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'quvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalarini o'tkazish orqali ruhiy, jismoniy toliqishni oldini olib, darsga bo'lgan diqqatni jamlashga olib keladi. O'tkazilayotgan dam olish mashqlari avvalo, dars mavzusiga, qolaversa, fanga mos bo'lsa, yanada maqsadga muvofig bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda dam olish mashqlari, asosan, harakatli o'yinlar, she'r, qo'shiqlar mazmuniga ko'ra harakatlar, kichik yoshdag'i o'quvchilarga mos psixologik testlar, qiziqarli hangomalar, topishmoqlar ko'rinishida bo'lishi lozim.

Quyida bardamlashtiruvchi mashqlardan namunalar keltirib o'tamiz.

**O'yinlar:**

«**Meva salati**» harakatli o'yini.

Sinf o'quvchilari besh turdag'i mevalar nomlari asosida guruhlarga birlashtiriladilar, ya'ni «olma», «nok», «shaftoli», «behi», «anor». Boshlovchi

qaysi mevalardan salat tayyorlashini aytса, о'quvchilar belgilangan meva nomlariga ko'ra joylarini almashadilar va boshlovchi bo'sh o'rnlardan biriga tez o'tirib olishi kerak. O'tirolmay qolgan o'quvchi boshlovchi vazifasini bajaradi. O'yin shu zaylda 1-2 daqiqa davom etadi. Masalan, boshlovchi: «Men barcha mevalardan salat tayyorlamoqchiman», — deb aytса, barcha «mevalar» o'rnlarini almashtiradilar, yoki «Men olma va nokdan salat tayyorlamoqchiman», — deb aytса, faqat boshlovchi aytgan mevalar o'rnlarini almashtiradilar.

### «Shahzoda va malikalar» harakatlari o'yini.

Sinf o'quvchilari 3 tadan guruhchaga birlashtirilib, 2 tasi ark (bir-birining qo'liga qo'lini qo'yan holda, ark - saroy hosil qiladilar), o'rtadagi o'quvchi yo shahzoda, yo malika vazifasini bajaradi. Boshlovchi «podshoh» vazifasida bo'lib, farmonlar beradi, ya'ni, «Malika va shahzodalar sayrga chiqinglari!» desa, Malika va shahzodalar farmonga ko'ra ardkan chiqib, «sayr» qiliшadi. «Malika va shahzodalar saroyga qayting!» — farmonidan so'ng, barcha saroyga qaytishga harakat qiladi. Podshoh ham shahzoda yoki malikalardan birining o'rniغا kirib oladi. Saroydan tashqarida qolgan boshlovchi «podshoh» vazifasini o'taydi va hokazo.

Dars uchun muayyan bir o'yin tanlar ekanmiz, quyidagi berilgan o'yinlardan mosini olishimiz yoki shu kabi o'yinlarni ijodiy ravishda tashkil etishimiz va qo'llashimiz mumkin. Masalan:

### «So'z va hodisalarni eslash» ta'limiy o'yini.

Sinf o'quvchilari kichik guruhchalarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so'z tanlaydi.

— Daraxt, paxta so'zi bilan o'yin boshlanadi. Dovuchcha, danak, do'mbira, doira, do'lana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi «d», «p» harflari bilan boshlanadigan so'zlar topiladi.

— Daraxt, paxta so'zlarining birinchi bo'g'iniga da-, pax- bo'g'in qo'shib so'z hosil qilish.

— Berilgan so'zlarga ohangdosh so'zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt, karaxt kabi.

— Berilgan so'zlar bilan bog'liq bo'lgan barcha so'zлarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, g'o'za, ko'sak; daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz.

— Berilgan so'zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar.

— Berilgan so'zlar bilan bog'liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht to'qishga harakat qilish.

— Berilgan so'zlardan «Sinkveyn» tuzish.

Ot: Paxta.

Sifat: Momiq, oppoq.

Fe'l: O'sadi, ochiladi, gullaydi.

Gap: Paxta qiyg'os bo'lib ochildi.

Ma'nodoshi: Oq oltin.

Ko'rinib turibdiki, topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashib borayapti. Bolaning faoliyat kengayib, tezlashtirilyapti. Shuning uchun u zerikmaydi. O'yin davomida mustaqil fikrlashni kimdir mantiq asosida quradi, kimdir so'zlarni tasodifan aytadi. Hozircha buning ahamiyati yo'q, muhimi, u fikrlayapti, mustaqil mulohaza yurityapti. Bolaning o'qituvchini aytganini takrorlab, loqayd o'tirganidan ko'ra, qanday bo'lsa ham fikr yuritgani, mehnat qilgani ma'qul.

O'yinlar har bir o'quvchida mustaqillikni, oddiylikni, bir-biriga yordam berish hissini uyg'otadi. Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy qobiliyatlarini, sezish organlari hamda logik tafakkurini o'stiradi, darslarni o'zlashtirishga ijobjiy ta'sir qiladi. Quyida berilgan o'yinlar o'quvchilarning so'z yasash, so'zning tarkibi, o'zak va o'zakdosh so'zlarni o'zlashtirishiga yordam beradi.

### 1. «Begona» o'yini.

Bu o'yining maqsadi, o'quvchilarni so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar mavzusidan olgan bilimlarini mustahkamlashga, darsda faollikni oshirishga yordam berish.

O'yinning borishi: ko'chma yozuv taxtasiga qo'shimchalar yoziladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar: -chi, -la, -dan, -li, -siz.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar: -ning, -chi, -ga, -ni, -da, -dan.

O'quvchilarga savol berasisz: Qani kim topadi?

Birinchi qatordagi qo'shimchalardan qaysi biri begona va ikkinchi qatordagi qo'shimchalardan qaysi biri begona, o'shani topib chizing. Qaysi o'quvchi begonani topsa, chiziq chizadi.

### 2. «So'z yasash» o'yini.

Bu o'yinni maqsadi, o'quvchilarning o'zak so'zlarga berilgan qo'shimchani to'g'ri topib qo'yish orqali so'z yasash malakalarini mustahkamlab, topqirlik, ziyraklik xislatlarini o'stirishga qaratilgan.

|       |       |
|-------|-------|
| gul   | -dosh |
| vatan | -kor  |
| osh   | -paz  |
| tosh  | -li   |
| bog'  | -lik  |
| tog'  | -loq  |
| shifo | -bon  |

### **3. «Kim topqir» o'yini.**

Bu o'yin sinfini guruhlarga bo'lib, tashkil etiladi. Har bir guruhga ikititadan harf beriladi. O'quvchilar berilgan harflar so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida keladigan o'zak so'zlarini topishlari kerak. Bu vazifani qaysi guruh tez bajarsa va ko'p o'zak so'zlar topsa, shu guruh g'olib bo'ladi. Masalan:

1-guruh uchun: 2-guruh uchun: 3-guruh uchun:

1. O 1. U 1. A
2. K 2. T 2. N

### **4. «Topog'on» o'yini.**

- Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong'oq;
- Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;
- Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;
- Ovchi, muzqaymoq, bo'ri, hayvonot bog'i, qafas, daraxt;
- Tuqli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh.

Berilgan so'zlar ishtirokida matn tuzing va unga sarlavha toping.

### **5. «Begona» o'yini.**

Bunda beshta so'z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so'z begona asardan olinadi.

Masalan: «O'gay», «Erka», «Mehnatsevar», «Sehrli sandiq», «Ajdar» bitta «Kulol» begona so'z. Shu begona so'zdan ertakni davom ettirishadi. Bola dasturda belgilangan bilimlarni kamida Davlat ta'lim standarti talablari darajasida o'zlashtirishi kerak. O'qituvchi bu jarayonni bolaga zavq bag'ishlovchi mana shunday o'yinlar asosida qura bilsa, bilim olish jarayoni shodlik va zavq manbaiga aylanadi va shu bilan birga o'quvchiga erkinlikni his etash imkonini beradi.

Quyida savod o'rgatish davri, 1-4-sinflarda ona tili darslarida mavzuga mos va sinfdan tashqari tadbirdirlarda qo'llash mumkin bo'lган yana bir qancha ta'limiy o'yinlardan namunalar ketiramiz:

### **1. «Kim ko'p so'z tuzadi» o'yini.**

O'quvchilarga biror harf (tovush)ga oid so'zlar topish vazifasi yuklataladi. Bu harf (tovush) so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida keishi lozimligi vazifasi beriladi. Masalan, «a» tovushiga oid so'zlar toping.

- So'z boshida: ayiq, asal, ... .
- So'z o'rasida: sariq, maktab, ....
- So'z oxirida: bog'cha, chana... kabি.

Harflarni shunday o'zgartiringki, boshqa so'z hosil bo'lsin.

Bolalarga so'zlar beriladi. O'quvchilarga so'zdagi biror harfni o'zgartirish orqali boshqa so'z hosil qilishlari kerakligi tushuntiriladi. Kim ko'p so'z tuza olsa, ana o'sha o'quvchi g'olib sanaladi.

Masalan:

Maktab - maqtab

bor – bosh - bos kabi.

**2. «Berilgan harflar asosida she’rlar to‘qing» o‘yini.**

Mavzuga oid biror so‘zning bosh harfiga moslab she’r, matn yaratish vazifasi qo‘yiladi. O‘quvchilar so‘z mazmunini inobatga olib, she’rlar to‘-qishlari kerak. Masalan:

Vatan azizdir

Aziddir elda.

Tinchligin istaydi

Aziz elimda.

Nomi o‘chmas

Mening dilimda, kabilar.

3. Berilgan bog‘inlarga bittadan harf qo‘sib, so‘zlar hosil qiling.

Bir bo‘g‘infi so‘z berilib, unga bir harf qo‘sish orqali o‘quvchilar yangi so‘z hosil qilishlari kerak.

Masalan:

Far: farq, fard, farz.....

Dar: dard, dars, darz ...kabi.

4. Berilgan so‘zlardagi harflarni ko‘rsatilgan raqamlar tartibi bilan o‘zgartirib, yangi so‘z hosil qiling.

Berilgan so‘zning har bir harfi ketma-ketlikda (1,2,3,4...) raqamlanadi. O‘quvchilar yangi so‘z hosil qilish uchun o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida berilgan raqamlar tartibini inobatga olib, yangi so‘zlar hosil qilishlari lozim.

CH U Q U R

1 2 3 4 5

2 1 3 4 5 – U CH Q U R

3 4 5 1 2 - ...

Q A R I CH

1 2 3 4 5

3 2 5 4 1 – CH A Q I R

1 5 3 2 4 - ... kabi.

5. Har bir harfdan song harf qo‘sib, yangi so‘zlar hosil qiling.

O‘quvchilarga avvalo bir harf beriladi, ular har bir harfga faqat bir harf qo‘sib, yangi so‘z yaratishlari kerak.

O - OL - OLA - OLAM

O‘ - O‘Q - O‘QI - O‘QISh

O‘ - O‘Q - O‘QI - O‘QIB...

6. Keyingi mos harflarni qo‘yib, yangi so‘zlar hosil qilish.

Berilgan so‘zlarning oxiridagi harfini o‘zgartirish orqali o‘quvchilar yangi so‘zlar hosil qiladilar va kim ko‘p so‘z tuzsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

Masalan:

KIYIN – KIYISH, KIYIK, KIYIM, KIYIB kabi.

7. So'zlardagi biror harf (tovush)ni shunday o'zgartiringki, qofiyasi mos so'zlar hosil bo'lsin.

O'qituvchi so'zlar aytadi va o'quvchilar so'zdagi biror tovushni o'zgartirib, unga mos qofiyadosh so'zlar topadilar. Masalan:

PILLA - TILLA,

PAXTA - TAXTA,

PUL - GUL,

POL - MOL,

PARTA - MARTA...kabi.

8. «*Rasmli rebus*». Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatiladi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan hayvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak.

Masalan: it, laylak, ohu, ninachi - ilon.

Anor, rediska, chinnigul, arpa - archa.

9. «*Kim tez bajaradi*». O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga 5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Berilgan vaqt ichida (1-2 daqiqada) o'quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari guruhlariga ajratadilar. Topshiriqni birinchi bo'lib xatosiz bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

10. «Enerjayzer» o'yini. Bu o'yindan «Ob-havo», «Qish», «Yil fasllari» kabi mavzular o'tilganda foydalanish mumkin. O'quvchilar doira shaklida turib oladilar. O'qituvchi o'rtada qo'l harakati orqali tabiat hodisalarini avval sekin, so'ng tezlashgan holatda ko'rsatadi. O'quvchilar soat mili bo'ylab ushbu harakatlarni so'zsiz davom ettiradilar.

A. Shamol (qo'llar bir-biriga sekin ishqalanadi, so'ng bu harakat tezlashadi).

B. Yomgir (qo'llar qarsillatiladi).

S. Jala (qo'llar chirmashtirilib, yelkalarga uriladi).

D. Do'l (tizzalarga shapatilab uriladi). Harakat asta-sekin teskarisiga qaytariladi.

11. «O'z guruhingni top» o'yini. O'quvchilarga rangli buklangan qog'ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib, o'z guruhini topishlarini tushuntiradi.

A. Mushuk (miyov-miyov).

B. Kuchuk (vov-vov).

S. Xo'roz (qu-qu-qu-qu).

D. Sigir (mo'-mo').

Guruhga bo‘linib olganlaridan so‘ng, guruhga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so‘zlab beradilar.

Berilgan ta’limiy o‘yinlardan savodxonlik bayramlariada ham unumli foydalanish mumkin. Keltirilgan o‘yinlar namuna sifatida berildi, undan ijodiy foydalanish imkoniyatlaringiz juda ko‘p. O‘yinlar bir xillikni yangilashtirish, kuch-quvvatni oshirish va ishni davom ettirish ishtiyorqini kuchaytirish uchun foydalidir. Bunda turli harakatlari o‘yinlar o‘tkazish lozim. Bu turdagagi mashqlar dam olish daqiqasi sifatida ham talqin etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish jarayonidan boshlab interfaol metod va texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini tashkil qilish, olib borish maqsadga muvofiq bo‘lishi bilan birga o‘qituvchi lug‘ati va nutqida yangi tushunchalarni shakkantiradi. Ya’ni, ta’lim jarayonida foydalani layotgan metod va texnologiyalarda o‘quvchilar va o‘qituvchining bajara-yotgan vazifasiga ko‘ra nomlanadi. Quyida interfaol ta’lim jarayonidagi ishtirokchilarning maxsus nomlari berilgan:

Savol-javob usulidagi suhbatlar hozirgacha eng samarali ta’lim usulalaridan biri sifatida qo‘llaniladi. Bunda o‘quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to‘g‘ri so‘zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatiladi. Masalan, savol-javob usulidagi suhbatlar deganda, o‘qituvchining o‘quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto‘g‘ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda, ularni tuzatish yo‘liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi.

Bunday sahbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib, ifodalash mumkin:

1. Savol-javoblar orqali o‘quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiylatini umumiyyat tarzda aniqlash.

2. O‘rganilayotgan mavzuning mazmunini o‘quvchi motivlariga muvo-fiqlashtirish. Bu asosan o‘quvchining qiziqish va qobilyatlariga mos bo‘lgan misollar tanlash orqali amalga oshiriladi.

3. O‘quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag‘batlantirish usullaridan foydalilanadi.

4. O‘qituvchi o‘zini bilmaydigan odamdek, o‘quvchidek tutib, savollar berib borishi.

5. O‘quvchining to‘g‘ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so‘zlashga jalb qilish.

6. O‘quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.

7. O‘quvchining xato fikrlariga nisbatan to‘g‘ri fikrni o‘qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali o‘quvchi uchun muammoli vaziyat yaratilib, o‘quvchini o‘z xatolarini o‘zi tuzatishiga yo‘naltirish. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasizdir. Ammo, buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular

o'qituvchining keng bilimga va ijodiy fikr-mahoratga ega bo'lishi kabilardan iborat.

**Muammoli ta'lif mashg'uotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

- o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;
- ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- zarur o'quv vositalarini tayyorlash;
- muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;
- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko'rsatish;
- o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lif jarayonini uchta asosiy bosqichga ajratiladi, bular:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoli yechim taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to'g'riliqini tekshirish (olingan yechimi bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Endi yuqorida ko'rsatib o'tilgan jarayonlarga chuqurroq to'xtalamiz. Shunga ko'ra, muammoli vaziyat hosil qilishda nimalar hisobga olinishi lozimligini aniqlaymiz:

Muammolar nazariy va amaliy yo'nalishda bo'ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, yoki, eng kamida, o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerak. Aks holda, ko'zda tutilgan natijaga erishish imkonni bo'lmaydi. Muammo o'quvchilarning bilim darajasiga hamda intellektual imkoniyatlari mos bo'ishi shart. Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga, yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqish sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa, o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkonini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tablil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi,

ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyligi, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, rejaliligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, intellektual sifatlar, xotira, tasavvur, aniglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq. Intellektual taraqqiyot darajasi o'qituvchilar hamda o'quvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo'ladi.

Shunga ko'ra, o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir tahminini to'g'ri belgilash va yechimning to'g'rilingini tekshirish qobiliyatlar rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni uchta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash - muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqlik tomonlarini topish asosida amalga oshiriladi.

2. Tekshirish - buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil qilishi to'g'rilingini asoslash bilan amalga oshiriladi.

3. Tushuntirish - muammoning yechimi nima uchun to'g'rilingini tasdiqlovchi sabablarini aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashning asosiy usullaridan biri o'yindir, bu haqda juda ko'p aytib o'tildi.

«Klaster» usulida berilgan o'zak so'zdan o'zakdosh so'zlar tuzib, bo'sh kataklarga yozish orqali o'quvchilarining so'z yasalishiga oid bilimlari mustahkamlanadi va darsning samaradorligi, o'quvchilarining faolligi ortadi:

Berilgan namunaga o'xshagan chizma karton yoki yozuv taxtasiga oldindan chizib, tayyorlab qo'yilgan bo'ladi. Faqat atrofdagi katakchalar bo'sh bo'lib, u o'quvchilar tomonidan to'ldiriladi. Bu topshiriqni guruhlarga alohida-alohida berish ham mumkin, yoki butun sinf uchun bitta berilsa ham bo'ladi.

«Zanjir» o'yini. Bu o'yinda o'quvchilarga bir harf beriladi, ular har bir harfga faqat bir harf qo'shib, yangi so'zlar hosil qilishlari kerak. Masalan:

O - OL - OLA - OLAM; O' - O'Q - O'QI - O'QISH; O' - O'Q - O'QI - O'QIB ...

Atrofimizdagi olam bilan tanishish darslarida dasturlashtirilgan o'qitish, ya'ni amaliy ishlardan, qiziqarli topshiriqlardan foydalanish muammosi o'ta dolzarbdir. Hozirgi naytda o'quvchilarining bilim olish faoliyatini jadallashtirish va ularni atrof-olam bilan tanishtirish darslarida olgan bilimlarini tekshirish maqsadida har bir o'quvchining o'quv jarayonida mustaqilligini ta'minlovchi va o'quv materialini o'zlashtirishda yordam beruvchi amaliy ishlar tizimi qo'llanilmoqda. Dasturlashtirilgan o'qitish bosqichma-bosqich bilim olishni kuzatishga imkon yaratadi, o'quv jarayoniga qanday o'zgartirishlar kiritilishi kerakligini ko'rsatadi.

Dasturlashtirilgan o'qitish uchun quyidagilar kerak:

- o'quv materialining puxta tahlili, uning qat'iy tanlanish va mantiqiy ketma-ketlik bo'yicha bo'linishi;
- o'quvchilarning bilim olish faoliyatini tekshirishdagi rahbarlik.

Dasturlashtirilgan o'qitishda o'quvchilarning o'quv materialini qo'llashda faolligi va mustaqilligi ortadi, o'qitish jarayonini individuallashtirish imkonи paydo bo'ladi, texnik vositali o'qitish keng qo'llaniladi, o'qitish va o'quvchi mehnatini oqilona tashkil etishga erishiladi. Nazorat ishlarini dasturlashtirishning tamoyili o'quvchilarning og'zaki javoblarini shartli belgilar va chiziqlar bilan yozma ravishda almashishdir. Ularning afzal jihatи shundaki, ular qisqa vaqt ichida har bir o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlay oladi. Tajriba atrof-olam bilan tanishish darslarida bilim olish jarayonini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o'qitish usullaridan foydalananining afzalliklarini ko'rsatadi. Afzalligi shundaki, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini o'quvchilarning o'zlarini shu da's mobaynida tekshirishlari mumkin. 2-sinfda dasturlashtirilgan o'qitishda tezis turidagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, tarqatma testlar, grafik topshiriqlardan foydalanan mümkün. Grafik topshiriqlarni bajarayot-ganda o'quvchilarga «-> noto'g'ri javob, «!» - to'gri javob ekanligini tushuntirish lozim. O'qituvchida esa grafik usuldagи javoblarni tezda aniqlashga moslashtirilgan asbob bo'lishi kerak. Masalan:

21-mart – Navro'z bayrami.

1-sentyabr – Mustaqillik bayrami.

1-oktyabr – Ustoz va murabbiylar kuni.

8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

«Muz yorar» usuli. Bu usulni birinchi dars yoki yangi bo'limni boshlash oldidan o'tkazish maqsadga muvofiq. O'qituvchi navbatdagi o'tiladigan bo'lim yuzasidan qisqacha ma'lumot beradi.

Masalan, «O'lkamizda kuz» bo'limida o'qituvchi yil fasllari, paxta terimi, ijtimoiy foydali mehnat, kuzgi o'simliklar, hasharotlar hayoti haqida umumiy tushunchalar berib o'tadi. Bu haqda o'quvchilar ham o'z fikrlarini bayon etadilar.

Masalan:

Mening ismim Shuhrat. Menga kuz fasli yoqadi. Chunki kuzda barcha kuzgi mevalar pishadi, «Hosil bayrami»ni nishonlaymiz, ota-onamga qovuntarvuz yig'ishda yordam beraman. Men katta bo'lganimda juda chiroyli bog' yarataman. Bog'imda shirin-shakar mevali daraxtlar ko'p bo'ladi.

Mening ismim Komila. Men kuz faslini yaxshi ko'rman. Chunki daraxt barglari juda chiroyli rangda tovlanadi. Da'alarda oppoq paxtalar ochiladi. Paxtadan chiroyli yostiqchalar tikish mumkin. Men kelajakda tikuvchi bo'lmoqchiman.

Har bir o‘quvchi shu tarzda o‘zi hamda tabiatga daxldorlik haqida so‘zlaydi. Bu usul o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ogzaki nutqini o‘stirishga yordam beradi.

«So‘z top» o‘yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foy-dalanish mumkin. O‘qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so‘z aytadi, o‘quvchilar davom ettiradilar. O‘qituvchi boshlagan so‘z qaysi harf bilan tugasa, o‘quvchi shu harfdan boshlangan so‘zni aytishi kerak.

Masalan: tulki - ilon - ninachi - it - tipratikan - nortuya - yalqov (panda) ayiq - qarg‘a – ari va hokazo.

Bu usul o‘quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Klaster» usuli. Bu usul o‘quvchiga berilgan mavzu bo‘yicha erkin o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o‘quvchi nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni aytadi va yozadi.

Yozilgan fikr to‘g‘ri yoki noto‘gri bo‘lishidan qat’iy nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o‘quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirib, ular o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o‘quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo‘yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘tkaziladi.

«Mozailka» usuli - ya‘ni mayda bo‘laklardan yaxlit ko‘rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo‘laklarga bo‘linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo‘lakchalarni bir butun ko‘rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

«To‘xtab o‘qish» usuli. O‘qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to‘xtab, o‘quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo‘lishi zarur. Yoki o‘quvchi matn o‘qish jarayonida to‘xatilib, nima haqida o‘qiganligi so‘raladi. Bu usul orqali o‘quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

«Zanjir» usuli. Bu usulni she‘r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar tartib hamda ketma-ketlik bilan berilgan she‘r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo‘llanganda o‘quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she‘r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo‘ladi.

Demak, yuqorida berilgan interfaol metodlar kabi tajribalarga asoslangan ta‘lim usullari orqali o‘quvchilarda faoliyk va dars samaradorligining oshishi ta‘minlanadi. O‘qituvchi ish faoliyatida mustaqil ravishda mavzuga mosini tanlash va qo‘llash imkoniga ega. Quyida berilgan metodlarning ba‘zilaridan boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarida qanday foydalanish mumkinligi misollarda berilgan: Taqdimot va muz yorarlar -

tanishuv mashqi sifatida tashkil etiladi. Dars boshlashdan oldin «Mening ismim ..., ism tarixi va ma’nosini aytинг», yoki «mening sevimli darsim, mening sevimli multfilmim ...» kabi shakkarda bola ruhiyatiga kirish asosida o’tkaziladi. Bu mashq har haftaning dushanba kuni o’tkazilishi, ya’ni kirish qismi sifatida qollanishi maqsadga muvofiq.

Xullas, hozirgi zamon ilm-fan, texnika rivojlanib borayotgan bir paytda ta’lim sohasida ham tub o’zgarishlar sodir bo’lishi tabiiyidir. Bu ta’limda sifat va samaradorlikka erishishning bosh omilidir.

Boshlang’ich ta’limda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mungkin:

### Bumerang texnologiyasi

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiya o’quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgam materialni yodida saqlab qolish, so’zlab berish, fikrni erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko’p ma’lumotga ega bo’lish hamda dars mobaynida o’qituvchi tomonidan barcha o’quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

**Texnologiyaning maqsadi.** O’quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o’quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o’zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o’zlashtirilganligini nazorat qilish hamda baholash. O’quv jarayoni mobaynida har bir o’quvchi tomonidan o’z baho yoki ballarini egallashga imkoniyat yaratish.

**Mashg’ulotni o’tkazish tartibi.** Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o’tkaziladi:

- O’quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi.
- Darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi.
- O’quvchilarga mustaqil o’rganish uchun mavzu bo’yicha matnlar tarqatiladi.
  - Berilgan matnlar o’quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o’rganiлади.
    - Har bir guruh a’zolaridan yangi guruh tashkil etiladi.
    - Yangi guruh a’zolarining har biri guruh ichida navbat bilan mustaqil o’rgangan matnlari yuzasidan axborot almashadilar, ya’ni bir-birlariga so’zlab beradilar, matnni o’zlashtirib olishga erishadilar.
    - Berilgan ma’lumotlarning o’zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o’tkaziladi, ya’ni guruh a’zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar.
  - Yangi guruh a’zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar.

- Darsning qolgan jarayonida o‘quvchilar bilimlarini baholash yoki to‘plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda «guruh hisobchisi» tayinlanadi.
- O‘quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi yoki opponent guruh o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadilar, og‘zaki so‘rov o‘tkazadilar.
- Savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning to‘plagan umumiy ballari aniqlanadi.
  - Har bir guruh a’zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog‘lagan holda bittadan savol tuziladi.
  - Guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi («guruh hisobchilari» berilgan javoblar bo‘yicha ballarni hisoblab boradilar).
  - Guruh a’zolari tomonidan to‘plagan umumiy ballar yig‘indisi aniqlanadi.
  - Guruhlar to‘plagan umumiy ballar guruh a’zolari o‘rtasida teng taqsimlanadi.
  - Dars yakunlanadi.

### **«Zinama – zina» texnologiyasi**

#### **Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

- O‘qituvchi o‘quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi.
- Mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtilradi.
- Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozushi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi.
- O‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sish joyga jamoa bilan birgalikda fikrashib, yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.
- Guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishda ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo‘yicha imkon qadar to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi.
- Tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, sinf yozuv taxtasiga mantiqan tagma-tag, ya’ni zina shaklida ilinadi.
- O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

## Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim.

Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, bilimlarni o'zlashtirishga mas'uliyat va qiziqishni tarbiyalaydi. 4-sinf ona tili darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin: buning uchun o'qituvchi yozuv taxtasini uch qismiga bo'ladi. Birinchi qismiga «Bilaman», ikkinchi qismiga bilishni xohlayman, uchinchi qismiga «Bilib oldim» deb yozadi. Keyin o'quvchilarga murojaat qilib, kim «Ot so'z turkumi» haqida nima bilishini so'raydi va o'quvchilar fikrini «Bilaman» ustuniga yozadi. Sinfda fikrlar tugagandan keyin o'quvchilarga yana murojaat qilib, «Ot so'z turkumi» haqida yana nimalar bilishni xohlashlarini so'raydi. O'quvchilar bergen javoblarni «Bilishni xohlayman» qismiga yozadi. O'quvchilar savollari tugagandan keyin o'qituvchi «Ot so'z turkumi» haqida ma'lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni o'quvchilarga tarqatib chiqadi, o'quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan keyin fikrlashga o'tadilar, yangi ma'lumotlarni bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar. O'qituvchi o'quvchilardan «Ot so'z turkumi» haqida yana qanday yangi ma'lumotlarga ega bo'lishganini so'raydi va «Bilib oldim» ustuniga yozadi. Keyin uchchala ustunni umumylashtirib, bиргаликда xulosa qilinadi.

| Bilaman   | Bilishni xohlayman   | Bilib oldim   |
|---|--|---|
| <p>Shaxs va narsalarning nomini bildiradi; insonlar, shaharlar, ko'chalar va boshqa atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi; otning egalik qo'shimchalari: -m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i qo'shilganda shaxs va narsa buyumlarning qaysi shaxsga qarashliligi aniqlanadi. Tilda uchta shaxs bor:</p> <p>I shaxs – so'zlovchi,<br/>II shaxs – tinglovchi,<br/>III shaxs – o'zga.<br/>-m, -im, -miz, -imiz - I shaxs.<br/>-ng, -ing, -ngiz, -ingiz - II shaxs.<br/>-si, -i, -(lar) - III shaxs</p> | <p>Egalik qo'shimchalari-da birlik va ko'plik ma'nolari qanday ifodalanishini.</p> | <p>-m, -im, -ng, -ing, -si, -i<br/>– egalik qo'shimchalari birlik ma'nosini bildiradi. -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i – egalik qo'shimchalari ko'plik ma'nosini bildiradi.</p> |

### 3-SINF O'QISH darsi. «Maqollar» mavzusidagi dars ishlansmasi

#### Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy qism:

O'quvchilar: Assalomu alaykum!

O'qituvchi: Vaalaykun assalom!

O'qituvchi: Qani bugun kim navbatchi?

O'quvchi: Bugun men navbatchiman. Sinfimiz toza, ozoda. Sinfda 24 nafar o'quvchi bor. Hammasi darsga qatnashyapti. Bugun ob-havo ochiq.



O'quvchilar bilan yaqinlashayotgan bayramlar haqida suhbat o'tkaziladi, she'rlar so'raladi.

O'qituvchi: Endi sizlar bilan guruhlarga ajralib olamiz. Marhamat, stol ustidagi kartochkalardan xohlaganingizni kelib, tanlab oling. (Stoldagi kartochkalarda «Vatan», «Do'stlik», «Kitob» so'zleri yozilgan bo'ladi).

O'quvchilar kelib, tanlab oladilar.

O'qituvchi: Kimiga «Vatan» so'zi yozilgan kartochka tushgan bo'lsa, «Vatan» guruhiga, kimiga «Do'stlik» so'zi yozilgan kartochka tushgan bo'lsa, «Do'stlik» guruhiga, kimiga «Kitob» so'zi yozilgan kartochka tushgan bo'lsa, «Kitob» guruhiga o'tishlaringizni so'rayman.

- 1-guruh – «Vatan» guruhi
- 2-guruh – «Do'stlik» guruhi
- 3-guruh – «Kitob» guruhi



Oltin qoidalar o'quvchilar bilan birlgilikda eslanadi:

1. O'ng qo'l qoidasi.
2. Bir-birini fikrini bo'lmaslik qoidasi.
3. O'zarlo hurmat.
4. Vaqtga rioya qilish...

O'qituvchi: Hozir kuz fasli. Kuzda ayni mevalar pishgan payt, shu jumladan, behilar ham pishgan. Bugungi darsimizning rag'bat kartochkasiga

men behi mevasini tanladim, chunki behi – do'stlik ramzi. Har bir behi 1 ball hisoblanadi.



### **II bosqich. O'tgan mavzuni so'rash:**

O'tgan mavzu «O'jar toshbaqa» masalini guruhlar navbatil bilan aytib berishadi.

1-guruh – «Vatan» guruhi

#### **O'jar toshbaqa**

Bir o'jar yosh toshbaqa,  
Injiq, bebosh toshbaqa  
Onasiga: Dod! – dedi,  
Menga iloj top, – dedi,  
Keragi yo'q kosamning,  
Bunda yurish osonmi?  
Xalaqit berar, qarang,  
Chopaman sekin, arang.  
Quyonni ushlolmasam,  
Sichqonni mushtolmasam.

2-guruh - «Do'stlik» guruhi

Ona sho'rlik yupatar,  
Bola ko'nglin ko'tarar:  
Kosang joningga huzur,  
G'alva qilma, qo'y, tek yur.  
Senga qalqon ust-u bosh,  
Gapga kir, bo'ima bebosh.  
Yo'-o'-o'q! – deb o'rmalab qaysar,  
Onasin jerkib vaysar.  
Kosasin uloqtirar,  
Parcha go'sht bo'lb yurar.

3-guruh - «Kitob» guruhi


Ammo jilolmas qittak,

Botar tosh va cho'kirtak  
Yalang' och yurish kulgi,  
Ko'rsa hap yutar tulki.  
Jish toshbaqa yurolmay,  
Chopolmay va turolmay,  
Kosaga kirar qaytib,  
Onaga uzr aytib.  
Endi o'jarlik qilmas,  
Ona so'zidan chiqmas.


### III bosqich. O'tgan mayzuni mustahkamlash:

O'tgan mayzu yuzasidan guruhlarga «Venn diagrammasi» beriladi.  
Birinchi va to'g'ri yechgan guruh rag'batlantiriladi.

1-guruh – «Vatan» guruhni




2-guruh - «Do'stlik» guruhni



### 3-guruh - «Kitob» guruhı

Toshbaqa

Quyon



**O'qituvchi:** Mana bolajonlar, toshbaqa bilan tulki, quyon, sichqonlarning o'xshash tomonlari va farqlarini bilib oldingiz. Har birining o'ziga yarasha qulayligi va kamchiliklari bor ekan-a?

#### IV bosqich. Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi o'quvchilarga maqol haqida ma'lumot beradi. Guruhlarga maqollarni tarqatadi, vaqt o'tgach ular maqollar mazmunini taqdimot qilib ayтиб berishlari kerak.

#### 1-guruh – «Vatan» guruhı

##### *Vatan haqida*

Vatanni sotgan er bo'lmas.  
Vatani boming baxti bor.  
Mehnati boming taxti bor.

##### *Ilm -fan haqida*

Bilagi zo'r birni yiqar,  
Bilimi zo'r mingni.

#### 2-guruh - «Do'stlik» guruhı

##### *Do'stlik haqida*

Baliq suvsiz yashamas,  
Insen – do'stsiz.  
Daraxtni temiri,  
Odamni do'sti saqlar.

##### *Odob-axloq haqida*

Bola aziz, edobi undan aziz.  
Yomondan goch, yaxshiga  
yondash.

### 3-guruh - «Kitob» guruhi

#### *Kitob haqida*

**Kitobdan yaxshi do'st yo'q.**  
**Kitob bilim manbai.**

#### *Ota-onang va farzand haqida*

**Ota-onang - davlatning.**  
**Ota-bola - bir bog'.**  
**Biri - gul, birl - bog'boz.**

«Tushunchalar tahlili» metodi jadvalining tushuncha qatoriga ikkitadan yangi mavzuga doir tushuncha beriladi. Ular uning yoniga mazmunini yozishlari kerak.

### 1-guruh – «Vatan» guruhi

|                             |                |
|-----------------------------|----------------|
| <b>tushuncha</b>            | <b>mazmuni</b> |
| <b>odob-axloq</b>           |                |
| <b>ota-onang va farzand</b> |                |

### 2-guruh - «Do'stlik» guruhi

|                  |                |
|------------------|----------------|
| <b>tushuncha</b> | <b>mazmuni</b> |
| <b>vatan</b>     |                |
| <b>kitob</b>     |                |

### 3-guruh - «Kitob» guruhi


|                  |                |
|------------------|----------------|
| <b>tushuncha</b> | <b>mazmuni</b> |
| <b>do'stlik</b>  |                |
| <b>ilm-fan</b>   |                |

Vaqt tugagach taqdimot o'tkaziladi. Guruhlarga yana qanday maqolalarni bilasiz? deb savol berib, vaqt ajratiladi. Berilgan vaqt davomida har bir guruh bittadan maqol yozib, vaqt tugagach, guruhdan bir kishi taqdimot qiladi. Matn yuzasidan o'qituvchi va guruhlar bir-birlariga savollar beradilar va javoblar aytadilar. So'ng ular o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.


#### V bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darslikdagi maqollar asosida guruhlarga «Baliq skeleti» beriladi, ular berilgan vaqt davomida maqollarni davomini sleletning pastki qismiga yozishlari kerak.


### 1-guruh – «Vatan» guruhı



### 2-guruh - «Do'stılık» guruhı



### 3-guruh - «Kitob» guruhı



Vaqt tugagach, taqdimot o'tkaziladi, o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VI bosqich. Darsni yakunlash. Baholash va uyg'a vazifa berish:**

Darsga xulosa yasaladi. Rag'bat kartochkalari asosida g'olib guruh aniqlanadi. Baholash yakka tartibda ham amalga oshiriladi. Uyg'a maqollarni yod olib kelish vazifasi topshiriladi.

#### **4-sinf Tabiatshunoslik darsi. «Tuproq unumдорлигі және ахамияті» мавзусидагы дарс ішінше нұсқасы**

**Darsning borishi: Tashkiliy qism:**

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum, bolajonlar!

**O'quvchilar:** Assalomu alaykum, ustoz.

Salom bergen o'zi odobli,

Kulib turgan yuzlari go'yo oftobli.

Salom berish, bu a'lo alomat,

Salom bergenlar, bo'ling salomat.

**O'qituvchi:** Xo'sh, hurmatli o'quvchilar, qaysi darsga mehrimizni berishimiz kerak ekan?

**O'quvchi:** Tabiatshunoslik darsiga.

**O'qituvchi:** Ofarin. Bugun kim navbatchi?

**O'quvchi:** Bugun men navbatchiman. Darsda bugun barcha o'quvchilar qatnashyapti.

**O'qituvchi:** Hozir qaysi fasl?

**O'quvchi:** Hozir kuz fasli.

**O'qituvchi:** Kuz oylarining nomlarini bilasizmi?

**O'quvchi:** Bilamiz: sentabr, oktabr, noyabr.

**O'qituvchi:** Qaysi bayram yaqinlashayapti?

**O'quvchi:** .....

**O'qituvchi:** Barakalla. Barchangiz darsga tayyormisiz?

**O'quvchilar:** Ha, tayyormiz.

**O'qituvchi:** Bolalar dars davomida rioya qilishi lozim bo'lgan qoidalar bilan tanish tiraman. Intizomli bo'lism, bir-birlarini hurmat qilish, faoliik ko'rsatish, hamkorlikda ishlash, vaqt dan unumli foydalanish, o'zgalar fikrini takrorlamaslik.

**Dars qoidalari:**

1. Tartib – intizomga rioya etish.
2. Faoliik ko'rsatish.
3. O'zaro hurmat ko'rsatish.
4. Diqqat bilan tinglash, eshitish.
5. Aniq va qisqa javob berish.
6. O'ng qo'l qoidasi.
7. Ijodkorlik ko'rsatish.
8. Vaqt dan unumli foydalanish.

Darsimizning shiori:

**O'quvchilar:** Tabiat - Yerimizdir.

Asramoq burchimizdir.

Endi darsimizni beshlashimizdan oldin guruhlarga bo'linib olamiz. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda tarqatma kartochkalar orqali «Ziyarklar», «Zukkolar», «Chaqqonlar» guruhlarga bo'lib oldik.


I. O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash.


**O'qituvechi:** Bolalar, o'tgan darsimizda qaysi mavzuni o'tgan edik?

**O'quvchi:** O'tgan darsimizda «Tuproq» mavzusini o'tgan edik.



**O'qituvchi:** Yaxshi, hozir uyga berilgan vazifani so'rab olamiz.

Har bir guruhga tarqatma kartochkalarda topshiriq beriladi. «Baliq skeleti» usuli.







O'ikamizda qushlar nima bilan  
oziqhanadi?  
Kuzda uchib ketuvchi  
qushlardan qaysilarini  
bitasiz?  
Qushlarning qanday  
foyasi bo?  
Kuzda daysi qushlar  
yurtimizga uchib keadi?



21-mart qanday kun?  
21-martda nima  
tenglashadi?  
Qadimda yangi yil  
qachon boshlangan?  
Bahorig'i tengkunik






Tarqatma varaqalar orqali o'tilgan mavzuni so'rab, o'quvchilar bilimi aniqlanadi.

**O'qituvchi:** Judaham yaxshi, endi bolajonlar 2-topshiriq – o'tilgan mavzuni mustahkamlaymiz.

## «Klaster» usuli



### Dam olish daqiqasi.

Qanday yaxshi bolalar  
Tozalik orastalik.  
Go'zal xulq, odob bilan,  
Hamisha payvastalik.  
Sahar turib uyqidan,  
Muzday suvga yuz yuvgan.

Qiziguncha to badan  
Yo'lakchada yugurmoq.  
«1, 2» deb egilib,  
Mashq qilsangiz yana.  
Shasht bilan ko'krak kerib,  
Yursangiz yayrat tana.

Bu she'rni harakatlar bilan bajariladi.

Guruhlarga 4 ta vatmanga o'tilgan mavzular yuzasidan «marmar», «granit», «ohaktosh», «qum va gil» mavzularini yozilib, tarqatiladi. Guruh a'zolari o'z mavzularini vatmanga rasm, ma'lumot, chizma, jadval ko'rinishida aks ettiradilar. So'ng taqdimot o'tkaziladi. Yozuv taxtasiga ishning saviyasiga qarab, zina shaklida ilinadi. G'oliblar rag'batlanriladi.

Granit

Marmar

Ohaktosh

Qum va gil

## II. Yangi mavzuning bayoni:

O'qituvchi: Endi bugungi yangi mavzumiz «Tuproq unumdorligi va ahamiyati». O'qituvchi kitob rasmlari asosida suhbat quradi.



Bolajonlar, kitobingizga qarab, o'qiganlarimni kuzatib boring.

### «Tuproq unumdorligi va ahamiyati»

1-2 metr chuqurlikdan olingan tuproqqa o'simlik ko'chati o'tqazilsa, u o'smasdan qurib qoladi. Chunki, bunday tuproqda o'simlik uchun ozuqa yetarli bo'lmaydi....

O'qituvchi: Endi bolajonlar, yana guruhlarda ishlaymiz. Mana bu tar-qatma kartochkalarni olib, topshiriqlarni bajaramiz.

### «Tushunchalar tahlili» metodi

| Tushuncha  | Mazmuni |
|------------|---------|
| Tuproq     |         |
| Chirindi   |         |
| Minerallar |         |

| Tushuncha     | Mazmuni |
|---------------|---------|
| Mikroorganizm |         |
| Bakteriya     |         |
| Zamburug'     |         |

| Tushuncha  | Mazmuni |
|------------|---------|
| Unumdarlik |         |
| Tuproq     |         |
| Mikrob     |         |

### III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzu tezkor savol-javob orqali mustahkamlanadi.

- 1.O'simlik tuproqdan qanday oziqlanadi?
2. Unumdar tuproq deganda qanday tuproq tushuniladi?
- 3.Tuproq unumdarligini oshirishda undagi jonzotlar qanday o'rinn tutadi?

### V. Dars yakuni:

G'olib guruh e'lom qilinadi. O'quvchilarning darsdag'i faolligi ballanadi va dars yakunlanadi. O'quvchilarga berilgan rag'bat kartochkalari sanaladi, faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### VI. Uyga vazifa.

Matnni o'qib, mazmunini so'zlab berish, savollarga javob yozish.

Buyuk O'zbekistonimizning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning salohiyatiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Chunki o'qituvchining kasbiy madaniyati, pedagogik mahorati tufayli o'quvchi fan asoslarini puxta egallaydi, ma'naviy jihatdan rivojlanadi. Insoniyat erishgan boy qadriyatlarga suyangan holda kamol topadi. Shuning uchun ham o'qituvchi faqatgina maxsus bilimlar va malakalar bilan chegaralanib qolmay, balki bolalarning fiziologik va psixologik rivojlanishini doimiy kuzatib boradi. Bularidan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtiradi, turli vositalar bilan o'quvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, ularning faoliyatini unumli bo'lishini tashkil etadi. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyotining rivojlanishi o'qituvchidan ijodkor bo'lishni, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishni, yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar olib borishni talab qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchining ushbu sohadagi malakalari o'quvchi shaxsini shakllantirishning negizini tashkil etadi. Demak, o'qituvchi ilg'or tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. O'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni egallaydi.

O'qituvchi dars jarayonini tashkil qilar ekan, avvalo uning samarali bo'lishi, o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu sababli darslarni tashkil qilishning turli xil usullaridan foydalilaniladi. O'qituvchi dars tuzilmasini tuzar ekan, dars tuzilmasi darsning

maqsadli kechishini ta'minlovchi va uning turli elementlari orasidagi munosabatlarni tavsiflovchi faoliyatlar zanjiridir.

Dars oldiga qo'yilgan maqsadlarga ko'ra turlicha tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda pedagogik amaliyotda dars tuzilmalarining har xil variantlari qo'llanilmoqda. Dars tuzilmalari va texnologik xaritalar namuna tarzida berilgan bo'lib, o'qituvchilar dars mavzusi va maqsadlaridan kelib chiqib, ijodiy yondoshishlari mumkin. Biz quyida yangi mavzuni bayon qilish dars tuzilmasini tuzishda nimalarga ahamiyat berish va qanday qilib tuzishga misol keltiramiz:

### **Yangi mavzuni bayon etish darsining tuzilmasi**

Mazkur dars tuzilmasi quyidagi zanjirlardan iborat:

➤ darsning maqsadini e'lon qilish; bunda o'qituvchi o'tiladigan maqsadini belgilaydi va darsni boshlanishida e'lon qiladi;

➤ o'quvchilarning yangi mavzuni o'rganishlarini rag'batlantirish (motivatsiya); o'qituvchi qo'yilgan maqsadga o'quvchilarning qay biri tezroq va samaraliroq erishgan bo'lsa, ularni rag'batlantirish usullarini bildirishi zarur;

➤ mavzuga oid yangi tushuncha yoki axborotlarni ma'lum bir izchilikda, mayda tugal bo'laklarga bo'lgan holda, bosqichma-bosqich bayon etish;

➤ mavzuga oid eng asosiy tushuncha va tayanch ma'lumotlarga urg'u berish. ularni ajratib ko'rsatish hamda yodda saqlab qolish bo'yicha ko'r-satmalar berish;

➤ yangi mavzu materiallarini mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashq o'qituvchi tomonidan namoyish qilinadi;

➤ o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan bajarilgan yangi materialni mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashq;

➤ o'quvchilarning yangi materiallarni dastlabki o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish;

➤ o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash asosida yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil mustahkamlash;

➤ o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash maqsadida asosiy tushuncha va tayanch materiallardan tez-tez foydalanish va amalda qo'llash;

➤ dars o'quv maqsadlariga erishilganini, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni baholash;

➤ darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

**O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish hamda mustahkamlash darsining tuzilmasi quyidagi elementlardan iborat:**

• o'quvchilarga darsdan kutileyotgan o'quv maqsadlarini eslatish;

• taklif etilgan topshiriqlarni bajarish natijasida egallanishi lozim bo'lgan aniq bilim va ko'nikmalarni aytib o'tish;

- o‘quvchilar tomonidan turli topshiriqlarning bajarilishi;
- topshiriqlar bajarilishini nazorat qilish va baholash;
- topshiriqlarni bajarish davomida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni muhokama etish hamda tuzatish;
- darsning o‘quv maqsadlariga erishilganligini, ya’ni o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni baholash;
- darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

### **Bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish**

**darsining tuzilmasini tayyorlashda quyidagilarga ahamiyat beriladi:**

- dars maqsadini aniqlash;
- dars davomida egallanishi lozim bo‘lgan tayanch bilim va ko‘nikmalarni eslatish;
- nazorat topshiriqlarini bajarish;
- yangi ko‘nikma bilan tanishtirish va uning o‘qituvchi tomonidan namoyish qilinishi;
- yangi ko‘nikmani o‘zlashtirish mashqlarini bajarish;
- yangi ko‘nikmalarni mustahkamlash mashqlarini bajarish;
- namuna, algoritm, ko‘rsatma (instruksiya) bo‘yicha bajariladigan mashqlar;
- o‘xhash vaziyatlarga olib keladigan mashqlarni bajarish;
- ijodiy mashqlar;
- darsning o‘quv maqsadlariga erishilganligini, ya’ni o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni baholash;
- darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

### **Takrorlash darslarining tuzilmasi quyidagi elementlardan iborat:**

- tashkiliy qism;
- ta’lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalar qo‘yish;
- asosiy tushuncha, bilim, ko‘nikma, faoliyat (aqliy va amaliy) turlarini takrorlashga mo‘ljallangan uy vazifasini tekshirish;
- takrorlash natijasini umumlashtirish va bajarilgan ishlarni dars mobaynida tekshirish;
- uyga vazifa.

**Nazorat ishi – o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni baholash darsining tuzilmasi.** Tashkiliy qism: darsda xotirjam, tinch va ishchan muhitni tashkil etish muhimdir. Chunki o‘quvchilar nazorat ishidan qo‘rqib, hayajonlanmasliklari kerak. Nazorat ishini o‘tkazishdan maqsad – o‘quvchilarning keyingi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlashdan iborat.

1. Darsning maqsadini belgilash. O‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadigan va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar eslatiladi. O‘quvchilarga nazorat ishini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. Topshiriqni mustaqil bajarish zarurligi eslatib o‘tiladi.

2. Nazorat ishining mazmunini bayon etish (masalalar, misollar, diktant, insho, test va hokazo). Taklif etiladigan topshiriqlar hajmi va murakkablik darajasi ta’lim standarti hamda o‘quv dasturiga mos va o‘quvchilar uddalay oladigan bo‘lishi kerak.

3. Nazorat ishi natijalarini e’lon qilish va xatolar ustida ishlash. O‘qituvchi eng yaxshi bajarilgan ishlarni namoyish qiladi. Ko‘p yo‘l qo‘ylgan tipik xatolarni tahlil etadi va ular ustida ishlashni tashkillashtiradi. Ko‘pincha buning uchun alohida dars ajratiladi.

4. Nazorat ishida uchragan tipik xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni kelgusida bartaraf etish yo‘llarini belgilash.

**O‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash darsining tuzilmasi:**

- tashkiliy qism (o‘quvchilarni darsga psixologik tayyorlash va motivatsiya);
  - dars mavzusi va maqsadini e’lon qilish;
  - amaliy ko‘nikmalarni egallash uchun zarur bo‘ladigan bilimlarni, nazariy materiallarni takrorlash;
  - nazariy bilimlarni standart vaziyatlarda qo‘llash orqali dastlabki ko‘nikmani shakllantirish va mustahkamlash;
  - bilim va ko‘nikmalarni o‘zgargan sharoitlarda qo‘llash mashqlarini bajarish;
  - bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash;
  - o‘zlashtirilgan ko‘nikma asosida malakani shakllantiruvchi mashqlarni bajarish;
  - darsning o‘quv maqsadlariga erishilganini, ya’ni o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni baholash;
  - darsga yakun yasash va uygaga vazifa berish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslar ma’lum bir ketma-ketlikda, bir tizim asosida tashkil qilinadi. Darslarni tizimli tashkil qilishda bizga, albatta, texnologik xarita yordam beradi. Texnologik xarita darsni bir tizimga solib, uni amalga oshirish bosqichlarini aniqlab beradi. Texnologik xarita 6 bosqichdan iborat bo‘lib, unga tashkiliy qism, o‘tgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash, yangi mavzu bayoni, yangi mavzuni mustahkamlash va yakuniy bosqichlar kiradi. O‘qituvchi tayyorlov bosqichida darsga tayyorgarlik ko‘radi, ya’ni dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta’lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi. Tayyorlov bosqichiga vaqt ajratilmaydi, chunki

o'qituvchi xohlagan vaqtida, o'ziga keragicha darsga tayyorgarlik ko'rishi mumkin. Kirish, asosiy va yakunlovchi bosqichlarda nimalarga ahamiyat berish kerakligi quyidagi texnologik xaritada o'z aksini topgan:

### Yangi mavzuni bayon etish darsining texnologik xaritasi

| Dars bosqichlari | O'qituvchi faoliyati  | O'quvchi faoliyati  | Tavsiya etiladigan metodlar   |
|------------------|---|---|---|
| <b>Tayyorlov</b> | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'llim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi.  |   |   |
| <b>Kirish</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ darsning maqsadini e'lon qilish;</li> <li>➢ o'quvchilarining yangi mavzuni o'rganishlarini rag'batlantrish (motivatsiya).</li> </ul>   | Daftarga qayd etadilar.   | Og'zaki Aqliy hujum   |
| <b>Asosiy</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>➢ mavzuga oid yangi tushuncha yoki axborotlarni ma'lum bir izchillilikda, mayda tugal bo'laklarga bo'lgan holda, bosqichma-bosqich bayon etish;</li> <li>➢ mavzuga oid eng asosiy tushuncha va tayanch ma'lumotlarga urg'u berish, ularni ajratib ko'rsatish hamda yodda saqlab qolish bo'yicha ko'rsatmalar berish;</li> <li>➢ yangi mavzu materiallarini mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashq o'qituvchi tomonidan namoyish qilinadi;</li> <li>➢ o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan bajarilgan yangi materialni mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashq;</li> <li>➢ o'quvchilarining yangi materiallarni dastlabki o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish;</li> <li>➢ o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash asosida yangi bilim</li> </ul> | <p>Muhokamada ishtirok etadilar.</p> <p>Daftarga qayd etadilar.</p> <p>O'quvchilar mashqlarni qanday bajarilishini va ketma-ketligini kuzatib boradilar.</p> <p>Amaliy mashq bajaradilar.</p> <p>Amaliy mashq bajaradilar.</p> <p>Bajarilgan amaliy mashq natijalarini taqdimot</p> | <p>Munozarali ma'ruza</p> <p>Aqliy hujum yoki pinbord</p> <p>Kichik guruhlarda ishslash</p> <p>Kichik guruhlarda ishslash</p> <p>Kichik guruhlarda ishslash</p> |

|                |   |  |                                    |
|----------------|---|--|------------------------------------|
|                | va ko'nikmalarни mustaqil mustahkamlash;<br>➤ o'zlashtirilgan bilimlarnи mustahkamlash maqsadida asosiy tushuncha va tayanch materiallardan tez-tez foydalanimish va amalda qo'llash. | qiladilar.<br>Asosiy tushuncha va tayanch materiallarnи amalda qo'llash bo'yicha misollar keltiradilar | Bahs-munozara<br><br>Bahs-munozara |
| <b>Yakuniy</b> | Dars o'quv maqsadlariga erishilgанини, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarни baholash;<br>Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.                                     | Baholash mezonlariga muvofiq bir-birlarini baholaydilar.   | Kichik guruhlarda ishlash          |

Yuqorida bayon qilingan dars tuzilmasи va texnologik xarita zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan bo'lib, dars jarayonini samarali tashkil etish, o'tkazish va o'quvchilarnи davlat ta'lim standarti talablarini mukammalroq o'zlashtirishiga asos bo'ladi. Bunday ta'lim texnologiyasiga asoslangan darslarda o'quvchilarning hamkorlikda ishshashlariga imkoniyat yaratiladi. Qo'yilgan muammo bo'yicha amaliy mashq bajarib, o'zlar muammoni mustaqil hal etishlari, ijodiy izlanishlari mumkin. Bu esa darsning sifat va samaradorlini oshishiga o'z hissanini qo'shadi.

### **O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarни rivojlantirish hamda mustahkamlash darsi**

Biz o'tgan mashg'ulotimizda yangi mavzuni bayon etish darsining tuzilmasи va texnologik xaritasi haqida so'z yuritgan edik. Bugungi mashg'ulotimizda esa o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarни rivojlantirish hamda mustahkamlash darsi haqida fikrlashamiz. Mazkur darsning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga yetkazilgan o'quv materiallari va axborotlar to'g'-risidagi bilim va ko'nikmalarни qanday usullar bilan rivojlantirish hamda uni mustahkamlash usullari ko'rsatib beriladi.

O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarни rivojlantirish hamda mustahkamlash darsining texnologik xaritasi ham o'tgan mashg'ulotda aytib o'tganimizdek, 4 bosqichdan iborat bo'lib, tayyorlov, kirish, asosiy va yakuniy bosqichlardan tashkil topgan. Har bir bosqichda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatları ko'rsatilgan. Darsning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, o'qituvchi dars tuzilmasи va texnologik xaritani tuzishda ijodiy yondoshishi mumkin.

| Dars bosqichlari | O'qituvchi faoliyati  | O'quvchi faoliyati  | Tavsiya etiladigan metodlar                     |
|------------------|---|---|---|
| <b>Tayyorlov</b> | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi.  |   |   |
| <b>Kirish</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• o'quvchilarga darsdan kutilayotgan o'quv maqsadlarini eslatish;</li> <li>• taklif etilgan topshiriqlarni bajarish natijasida egallanishi lozim bo'lgan aniq bilim va ko'nikmalarni aytib o'tish.</li> </ul>                                  | Daftarga qayd etadilar.   | Og'zaki.<br><br>Aqliy hujum.                    |
| <b>Asosiy</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• o'quvchilar tomonidan turli topshiriqlarning bajarilishi;</li> <li>• topshiriqlar bajarilishini nazorat qilish va baholash; topshiriqlarni bajarish davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni muhokama etish hamda tuzatish.</li> </ul> | Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Bajarilgan amaliy mashq natijalarini taqdimot qiladilar. | Kichik guruhlarda ishlash.<br><br>Bahsmunozara. |
| <b>Yakuniy</b>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• darsning o'quv maqsadlariga erishilganligini, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni baholash;</li> <li>• darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.</li> </ul>  | Daftarga qayd etadilar.   | Kichik guruhlarda ishlash.                      |

Tavsiya etilayotgan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish hamda mustahkamlash darsining tuzilmasi va texnologik xaritasi o'quvchilarga berilayotgan o'quv axborotini samarali tashkil etishda yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilar taklif etilgan topshiriqlarni bajarish natijasida aniq bilim va ko'nikmalarni egallaydilar, o'quvchilar tomonidan turli topshiriqlar bajariladi, topshiriqlar bajarilishini doimiy nazorat qilib borish va baholash, topshiriqlarni bajarish davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni o'zarो kichik guruhlarda muhokama etish hamda tuzatish imkoniyatlari tug'iladi. Darsning o'quv maqsadlariga erishilganligini, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni xolisona baholash o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshiradi.

## Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish darslarini qanday tashkil qilish mumkin?

Har bir dars o'quvchi uchun yangi axborotdir. Ayniqsa, yangi o'quv materiali orqali o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish asosiy ta'lif sifatini ta'minlovchi omildir. O'quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy faoliyat, o'yin mashqlari va rolli o'yinlar kabi noan'anaviy ta'lif metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

## Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish darsining texnologik xaritasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

| Dars bosqichlari | O'qituvchi faoliyati   | O'quvchi faoliyati  | Tavsiya etiladigan metodlar  |
|------------------|--|---|--|
| <b>Tayyorlov</b> | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'lif metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi.   |   |  |
| <b>Kirish</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• dars maqsadini aniqlash;</li> <li>• dars davomida egallanishi lozim bo'lgan tayanch bilim va ko'nikmalarni eslatish.</li> </ul>   | Daftarga qayd etadilar.   | Og'zaki.<br><br>Aqliy hujum.   |
| <b>Asosiy</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• nazorat topshiriqlarini bajarish;</li> <li>• yangi ko'nikma bilan tanishtirish va uning o'qituvchi tomonidan namoyish qilinishi;</li> <li>• yangi ko'nikmani o'zlash-tirish mashqlarini bajarish;</li> <li>• yangi ko'nikmalarni mustahkamlash mashqlarini bajarish;</li> <li>• namuna, algoritm, ko'r-satma (instruksiya) bo'yicha bajariladigan mashqlar;</li> <li>• o'xshash vaziyatlarga olib keladigan mashqlarni bajarish;</li> <li>• ijodiy mashqlar.</li> </ul> | Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Ijodiy mashqlar Bajaradilar. | Kichik guruhlarda ishlash.<br><br>Kichik guruhlarda ishlash.<br><br>Vizuallash-tirish.<br><br>Rolli o'yin.<br><br>Mustaqil ijodiy ish. |
| <b>Yakuniy</b>   | • darsning o'quv maqsadlariga erishilganligini, ya'ni  | Bajarilgan amaliy mashq natijalarini  | Kichik guruhlarda  |

|  |   |   |          |
|--|---|---|----------|
|  | <p>o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarini baholash;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.</li> </ul> | <p>taqdimot qiladilar.</p> <p>Daftarga qayd etadilar.</p> | ishlash. |
|--|---|---|----------|

O'qituvchi – eng avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsda qandaydir yangilik olishi va shu yangilik orqali nimadir qila olishi uning mahorati, bilimi va saviyasiga bog'liq. O'qituvchi har bir darsda dolzarb masalalarni qo'ya olishi, o'quvchilarni babs-munozaraga chorlay bilishi, darsni oxirigacha qiziqarli tarzda olib borishi zarur. Ta'lif sifatini ta'minlovchi yana bir omil – bu faol o'quvchidir. O'quvchilarni faollashtirish uchun esa o'qituvchi darslarda faol ta'lif metodlari va elementlaridan foydalaniishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

### Takrorlash darsida nimalarga ahamiyat beriladi?

Biz o'tgan mashg'ulotlarimizda bir necha dars tuzilmalari va texnologik xaritalar to'g'risida tushuncha berib o'tdik. Bugungi mavzuimizda esa takrorlash darslarini tashkil etish yo'llarini ko'rsatib o'tamiz. Takrorlash darsi o'quvchilarning oldingi dars mashg'ulotlarida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga erishishdir. Takrorlash darslarida «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishslash», «Davra suhbati» kabi faol o'qitish metodlaridan foydalaniish yaxshi samara beradi. Bu xildagi ta'lif metodlari o'quvchilarni mustaqil fikrlash doiralarini kengaytiradi, ular muammoga ijodkorlik bilan yondashishga harakat qiladilar, bu esa o'rganilgan bilimlarni uzoq vaqt xotirada saqlanib qolinishiga yordam beradi. Takrorlash darslarini tashkil qilishda dars maqsadini to'g'ri qo'yish zarur. Dars maqsadi aniq natijalarini ko'zlab qo'yilgandagina belgilangan natijaga erishish mumkin.

### Takrorlash darsining texnologik xaritasi

| Dars bosqichlari | O'qituvchi faoliyati   | O'quvchi faoliyati      | Tavsiya etiladigan metodlar |
|------------------|--|-------------------------|-----------------------------|
| <b>Tayyorlov</b> | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'lif metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi. |                         |                             |
| <b>Kirish</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• tashkiliy qism;</li> <li>• ta'lif beruvchi, tarbiyalov-</li> </ul>  | Daftarga qayd etadilar. | Og'zaki.                    |

|                |  |  |   |
|----------------|--|--|---|
|                | chi va rivojlantiruvchi vazifalar qo'yish;<br>• asosiy tushuncha, bilim, ko'nikma, faoliyat (aqliy va amaliy) turlarini takrorlashga mo'ljallangan uy vazifasini tekshirish. |  | Aqliy hujum.                              |
| <b>Asosiy</b>  | • takrorlash natijasini umumlashtirish va bajarilgan ishlarni dars mobaynida tekshirish.   | Amaliy mashq bajaradilar Natijalarni taqdimot qiladilar. | Kichik guruhlarda ishslash Davra suhbati. |
| <b>Yakuniy</b> | • uyga vazifa.   | Daftarga qayd etadilar.                                  | Kichik guruhlarda ishslash.               |

Takrorlash darslarida o'quvchilarning muammo ustida mustaqil, hamkorlikda ishslashlari va ularning o'zлари bajarilgan topshiriqlarni taqdimot qilishlari pedagogika fanida bir-birini o'qitish degan atama bilan tushuntiriladi. O'quvchilarning taqdimotlar paytida o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari, bir-birlarining kamchiliklарини to'ldirishlari boshqa o'quvchilarning bilmagan narsalarini o'rganiб olishlariga yordam beradi. Ayniqsa, takrorlash darslarida bunday metodlardan foydalanish, o'rganilgan o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga olib keladi.

### Nazorat ishi darslari

Nazorat darsi deyishimiz bilan o'quvchilar biroz tahlikaga tushadi. O'quvchilarda qo'rquv, hayajon hissi boshlanadi. Bu esa o'quvchilarda stress holatini vujudga keltiradi. Stress holati paydo bo'lishi bilan o'quvchilarning xotirasida mayjud bo'lgan axborotlar ham yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Shu sababli, darsni boshlash paytidayoq o'qituvchi darsda xotirjamlik va eng asosiysi, ishchan muhit yaratib olishi zarur. Nazorat darslarida har bir o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'quv materialini tayyorlanishi va dars jarayonida har bir o'quvchi bilan yakka mashg'ulotlar olib borish ham dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Topshiriqlarni tayyorlash jarayonida topshiriqlarni qanday metodlar orqali bajarish mumkinligi oldindan hisobga olinadi. Kichik guruhlar taqdimotidan so'ng nazorat ishida uchragan tipik xato va kamchiliklar ustida ishlanadi. Har bir uchragan tipik xatolar ustida ishslash bilan keyingi mavzularda shu xatolarga yo'l qo'ymaslikning oldi olinadi.

**Nazorat ishi – o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarни baholash darsining texnologik xaritasi**

| Dars bosqichlari | O'qituvchi faoliyati  | O'quvchi faoliyati  | Tavsiya etiladigan metodlar  |
|------------------|---|---|--|
| <b>Tayyorlov</b> | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi.  |   |  |
| <b>Kirish</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• tashkiliy qism: darsda xotirjam, tinch va ishchan muhitni tashkil etish;</li> <li>• darsning maqsadini belgilash; o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadigan va bahanadigan bilim va ko'nikmalar eslatiladi; o'quvchilariga nazorat ishini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi; topshiriqni mustaqil bajarish zarurligi eslatib o'tiladi.</li> </ul>   | <p>Daftarlarini tayyorlaydilar.</p> <p>Daftarga qayd etadilar.</p>  | Og'zaki.<br><br>Aqliy hujum.<br><br>Kichik guruhlarda ishlash.                   |
| <b>Asosiy</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• nazorat ishining mazmu-nini bayon etish;</li> <li>• nazorat ishi natijalarini e'lon qilish va xatolar ustida ishslash; o'qituvchi eng yaxshi bajarilgan ishlarni namoyish qiladi, ko'p yo'l qo'yilgan tipik xatolarni tahlil etadi va ular ustida ishslashni tashkillashtiradi;</li> <li>• nazorat ishida uchragan tipik xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni kelgusida bartaraf etish yo'l-larini belgilash.</li> </ul> | <p>Amaliy mashq bajaradilar.</p> <p>Natijalarini taqdimot qiladilar.</p> <p>Bir-birlari bilan muhokama qiladilar.</p> | Yakka tartibda ishslash.<br><br>Kichik guruhlarda ishslash.<br><br>Davra suhbat. |
| <b>Yakuniy</b>   | • uyg'a vazifa  | Daftarga qayd etadilar.   | Kichik guruhlarda ishslash.  |

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazorat darslari o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini xotirada uzoq vaqt saqlab qolishlariga yordam berishi

kerak. O‘quvchilarga berilayotgan topshiriqlar hajmi va murakkablik darajasi ta’lim standarti hamda o‘quv dasturiga mos va o‘quvchilar uddalay oladigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchining eng yaxshi bajarilgan ishlarni namoyish qilishi o‘quvchilarning rag‘batlantirish usullaridan biridir. Darsga bunday ijodiy yondashishlar o‘quvchilarning nazorat ishlari paytida qo‘rquv va hayajon hissini yo‘qotib, aksincha, ularning qiziqishlarini oshiradi.

### **O‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amalda qo‘llash darsi**

O‘quvchilarga dars berishning asosiy maqsadlaridan biri o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amalda qo‘llay olishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar darsda olgan bilimlarini amalda qanday qo‘llay oladilar? Biz o‘qituvchilar buning uchun dars jarayonini qanday tashkil qilishimiz lozim? O‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash uchun asosiy e’tibor mashqlarga qaratiladi. O‘qituvchi darsga tayyorlarlik ko‘rish vaqtidayoq, ya’ni maqsadlarni belgilash paytida, mavzuga bog‘liq qanday mashqlarni bajarish lozimligini e’tiborga olishi zarur. Mashqlarni bajarishda kichik guruhlarda ishslash, davra suhbati, individual mashqlar, muammoli topshiriqlar, tadqiqod, modellashtirish kabi metodlar yaxshi samara berishi mumkin. O‘quvchilarning mashqlarni bajarishdagi kreativlik va improvizatsiya rag‘batlantiriladi.

### **O‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini amalda qo‘llash darsining texnologik xaritasi**

| Dars bosqichlari | O‘qituvchi faoliyati  | O‘quvchi faoliyati      | Tavsiya etiladigan metodlar                                     |
|------------------|---|-------------------------|---|
| Tayyorlov        | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta’lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi.  |                         |   |
| Kirish           | <ul style="list-style-type: none"> <li>• tashkiliy qism (o‘quvchilarni darsga psixologik tayyorlash va motivatsiya);</li> <li>• dars mavzusi va maqsadini e’lon qilish;</li> <li>amaliy ko‘nikmalarni egalash uchun zarur bo‘ladigan bilimlarni, nazariy materialarni qaytarish.</li> </ul> | Daftarga qayd etadilar. | Og‘zaki.<br><br>Aqliy hujum.<br><br>Kichik guruhlarda ishslash. |

|                |   |  |   |
|----------------|---|--|---|
| <b>Asosiy</b>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>• nazariy bilimlarni standart yaziylatlarda qo'llash orqali dastlabki ko'nikmani shakllantrish va mustahkamlash;</li> <li>• bilim va ko'nikmalarni o'zgargan sharoitlarda qo'l-lash mashqlarini bajarish;</li> <li>• bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash;</li> <li>• o'zlashtirilgan ko'nikma asosida malakani shakllantruvchi mashqlarini bajarish.</li> </ul> | Amaliy mashq bajaradilar.<br><br>Berilgan topshiriq bo'yicha ijodiy ish bajaradilar. | Yakka tartibda ishlash.<br><br>Kichik guruhlarda ishlash. |
| <b>Yakuniy</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• darsning o'quv maqsadlariga erishilgagini, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni baholash;</li> <li>• darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.</li> </ul>   | Natijalarni taqdimot qiladilar.<br><br>Daftarga qayd etadilar.                       | Kichik guruhlarda ishlash.                                |

Mashqlarni bajarish paytida o'quvchilarga muammo qc'yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg'otish, bevosita ishtirokchilarga aylanishi hamda amaliy mashqlarni bajarish paytida mustaqil va ijodiy fikrlashlari aniq bir tizim asosida bilim olishni ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlarining taxminlarini tekshirishni va boshqa fikr-mulohazalarini tasdiqlashni, turli xil axborotlarni mantiqiy tahlil qilishni o'rganadilar.

### Takrorlash va umumlashtirish darsi

Biz o'tgan mashg'ulotimizda takrorlash darsi haqida so'z yuritgan edik. Xo'sh, takrorlash darsi bilan takrorlash va umumlashtirish darsining o'rtaida qanday farq bor. Farqi shundaki, takrorlash darsida o'quvchilar oldingi dars mashg'ulotlarida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini qayta takrorlaydilar va ularni mustahkamlaydilar. Takrorlash va umumlashtirish darslarida esa o'quv dasturida ko'rsatilgan bir bob yoki bo'lim bo'yicha takrorlash amalga oshiriladi. Ushbu darslarda yo'naltiruvchi matnlar bilan ishlash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Har bir ta'lim oluvchi to'ldirgan individual natijalar kartochkasini, guruh o'z ishini bajarganidan so'ng o'rganib chiqiladi. Individual natijalar kartochkasi:

- bizga har bir ta'lim oluvchining ishini baholash imkonini beradi;
- uning asosiy mahoratini rivojlanishini ko'rsatadi;
- bittadan ko'p javobga ega savollarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu ta'lim oluvchilarni o'z fikr-mulohazalarini aytishga va o'rgatishga, shuningdek, o'rgangan narsalarini idrok qilishga rag'batlantiradi;

- vazifani bajarish paytida, har bir ta'lim oluvchi nimalarga javob berishi lozimligini tushunish imkoniyatini beradi.

#### Takrorlash va umumlashtirish darsining tuzilmasi:

- tashkiliy qism;
- o'tilgan mavzu yoki mavzular turkumining ahamiyati, darsning maqsadi va rejasining o'qituvchi tomonidan bayon etilishi;
  - o'quvchilar tomonidan yakka tartibda va kichik guruhlarda jamoa bo'lib takrorlashga oid hamda umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lgan yozma va og'zaki topshiriqlarning bajarilishi;
  - bajarilgan topshiriqlarni baholash va xatolar ustida ishlash;
  - dars o'quv maqsadlariga erishilganlikni, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nkmalarни baholash;
  - darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

#### Takrorlash va umumlashtirish darsining texnologik xaritasi

| Dars bosqichlari | O'qituvechi faoliyati  | O'quvchi faoliyati        | Tavsiya etiladigan metodlar                            |
|------------------|--|---------------------------|--|
| Tayyorlov        | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi.   |                           |  |
| Kirish           | <ul style="list-style-type: none"> <li>tashkiliy qism;</li> <li>o'tilgan mavzu yoki mavzular turkumining ahamiyati; darsning maqsadi va rejasining o'qituvchi tomonidan bayon etilishi.</li> </ul>                                     | Daftarga qayd etadilar.   | Og'zaki.<br>Aqliy hujum.<br>Kichik guruhlarda ishlash. |
| Assiy            | <ul style="list-style-type: none"> <li>o'quvchilar tomonidan yakka tartibda va kichik guruhlarda jamoa bo'lib takrorlashga oid hamda umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lgan yozma va og'zaki topshiriqlarning bajarilishi;</li> </ul> | Amaliy mashq bajaradilar. | Yakka tartibda ishlash.                                |

|                |  |   |  |
|----------------|--|---|--|
|                | <ul style="list-style-type: none"> <li>• bajarilgan topshiriqlarni baholash va xatolar ustida ishlash.</li> </ul>  | <p>Berilgan topshiriq bo'yicha ijodiy ish bajaradilar.</p> <p>Bajarilgan topshiriqlarni baholash va xatolar ustida ishlaydilar.</p> | <p>Yo'naltiruvchi matnlar bilan ishlash.</p> <p>Kichik guruhlarda ishlash.</p> <p>Davra suhbatি.</p> |
| <b>Yakuniy</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• darsning o'quv maqsadlariga erishilganini, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarini baholash;</li> <li>• darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.</li> </ul> | <p>Natijalarini taqdimot qiladilar.</p> <p>Daftarga qayd etadilar.</p>  | <p>Kichik guruhlarda ishlash.</p>  |

O'quvchilarning takrorlash va umumlashtirish darslarida kichik guruhda ishlash paytida guruhning samaradorligi nafaqat vazifani amalga oshiruvchi sifatida qiziqtiradi (obyektiv samaradorlik), balki a'zolarni rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega (subyektiv samaradorlik). Bu holda, ko'pincha, kichik guruh vazifani bajarganligi ham muhim emas, buni muhokama yoki himoya paytida birgalikda qilish mumkin. Muhimi, vazifani bajarish paytida qanday usullardan foydalanylган, guruh qanday axborotlarni ishlatgan va bunda hamkorlar qaydarajada qatnashganligidir.

Yakun yasashda olingen ma'lumotlar va bilimlar hamda guruhda ishslash samaradorligi to'g'risida tushuncha paydo bo'lishi ham e'tiborga olinishi kerak. Fikr-mulohazalar natijalar varaqasiga yozib boriladi.

Ish tugagandan so'ng, o'quvchilar bilan ular qanday yangi mahoratga ega bo'lganliklari, ish bo'yicha qanday natijalar olganliklarini muhokama qiling. O'quvchilar tajriba orttirgan sari, ko'proq, yana nimalarini o'rganishlari kerakligi to'g'risida emas, balki o'rgangan narsalari to'g'risida gapira boshlaydilar.

Guruhni barcha a'zolarining yangi qarorlari va mulohazalari qayd etib o'tiladi. Har bir taklifni yetarlicha muhokama qiling. Agar u ijodiy (nostandard) bo'lsa, unga erishish uchun zarur bo'lgan barcha mahoratlar sanab o'tiladi.

### Aralash maqsadli (ikkitadan ko'p didaktik maqsadga ega) dars.

O'rta umumiylar muktablarida o'qitishning asosiy vazifasi hozirgi zamon jamiyatni har bir a'zosining mehnat faoliyati va kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishdan iboratdir. Har bir fanni o'rganish va bilim olishni davom ettirish uchun yetarli bo'ladigan bilim va ko'nikmalar tizimini

o‘quvchilarning mustahkam va ongli egallashlarini ta’minlashdan iborat. Dars jarayonida ikki va undan ortiq hamda bir necha yo‘nalishli didaktik maqsadlarni qo‘yilishi – aralash darslar deyiladi. Aralash darslarda ta’lim va tarbiyaviy vazifalarning kompleks tarzda hal etilishi, o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarni uzuksiz bo‘lishini ta’minlaydi.

### **Aralash maqsadli (ikkitadan ko‘p didaktik maqsadga ega) dars tuzilmasi:**

- tashkiliy qism;
- uyga vazifani tekshirish, darsning o‘quv maqsadlarini belgilash;
- o‘quvchilarni yangi materialni o‘zlashtirishga tayyorlash, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning ahamiyatini tushuntirish hamda ularni o‘zlashtirishga qiziqish uyg‘otish (motivatsiya);
- yangi materialni turli (noan‘anaviy) usullar asosida bayon etish;
- darsda o‘tilgan yangi va u bilan bog‘liq avval o‘tilgan materiallarni mustahkamlash;
- bilim va ko‘nikmalarni umumlashtirish, avval olingan hamda shakllangan bilim va ko‘nikmalar bilan bog‘lash;
- darsning o‘quv maqsadlariga erishilganlikni, ya’ni o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni baholash;
- darsga yakun yasash va uyga vazifa berish;
- o‘quvchilarni keyingi mavzuga tayyorlash (doim emas).

### **Aralash maqsadli (ikkitadan ko‘p didaktik maqsadga ega) darsning texnologik xaritasi**

| Dars bosqichlari | O‘qituvchi faoliyati   | O‘quvchi faoliyati      | Tavsiya etiladigan metodlar                |
|------------------|--|-------------------------|--|
| <b>Tayyorlov</b> | Dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta’lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi, topshiriqlar tuzadi.   |                         |  |
| <b>Kirish</b>    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• tashkiliy qism;</li> <li>• uyga vazifani tekshirish, darsning o‘quv maqsadlarini belgilash;</li> <li>• o‘quvchilarni yangi materialni o‘zlashtirishga tayyorlash, yangi bilim va ko‘nik-</li> </ul> | Daftarga qayd etadilar. | Og‘zaki.<br><br>Aqliy hujum.<br><br>Kichik |

|                |   |  |   |
|----------------|---|--|---|
|                | malarini o'zlashtirishning ahamiyatini tushuntirish hamda ularni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otish (motivatsiya).  |  | guruhlarda ishlash.   |
| <b>Asosiy</b>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>• yangi materialni turli (noan'anaviy) usullar asosida bayon etish;</li> <li>• darsda o'tilgan yangi va u bilan bog'liq avval o'tilgan materiallarni mustahkamlash;</li> <li>• bilim va ko'nikmalarни umumlashtirish va avval olin-gan hamda shakllangan bilim va ko'nikmalar bilan bog'lash.</li> </ul> | <p>Amaliy mashq bajaradilar.</p> <p>Berilgan top-shiriq bo'yicha ijodiy ish bajaradilar.</p> <p>Bajarilgan top-shiriqlar ustida ishlaydilar.</p> | <p>Yakka tartibda ishlash.</p> <p>Kichik guruhlarda ishlash.</p> <p>Davra suhbat.</p> |
| <b>Yakuniy</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• darsning o'quv maqsadlariga erishilganlikni, ya'ni o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni baholash;</li> <li>• darsga yakun yasash va uyga vazifa berish;</li> <li>• o'quvchilarni keyingi mavzuga tayyorlash (doim emas).</li> </ul>  | <p>Natijalarni taqdimot qiladilar.</p> <p>Daftarga qayd etadilar.</p>  | <p>Kichik guruhlarda ishlash.</p>   |

Ta'larning ko'rgazmali vositalardan foydalaniб, og'zaki mashq bajarish, dars samaradorligini oshirish hamda o'quvchining bilim va qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Og'zaki mashqlarda keng darajada va qisqa vaqt ichida o'quvchilarning faol ishtirot etishiga erishish kerak. Bu albatta, o'rinali o'tkazilsa, o'quv jarayonini faollashtiribgina qolmay, shu bilan birga o'quvchilarda ongli va mustahkam bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish manbai bo'ladi.

Ma'lumki, «Ta'limg to'g'risida»gi Qomunda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'larning uzlusizligi, uning mutlaqo yangi mazmuni, nufuzimi oshirishga, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'mniga yuksak baho berilgan. Zamnaviy ta'limg markazida shaxs turadi, unga ta'sir etuvchi, zaruriy fazilatlarni shakllantiruvchi bo'lib, o'qituvchi timsoli mujassamlashgan. Barkamol, mustaqil fikrlovchi shaxs esa ijtimoiy hayotimizni farovon qiluvchi, rivojlanishini shakllantiruvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'ladi. Xoh shaharda, xoh qishloqda bo'lishdan qat'iy nazar bilim egalariga ehtiyoj katta.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o'z asarlarida yoshlarga, o'quvchilarga yuksak ishonch bildirib, ularni barkamol avlod deb yuksak qadrlaydilar.

Zero, yoshlar kelajagi buyuk O'zbekistonimizning rivojiga qudratli kuch sifatida muhim hissa qo'shsalar, murod hosil bo'lgan bo'lur edi.

## XULOSA

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta’lim sohasida olib borilayorgan ishlarning mazmuni va istiqbolini belgilab berdi. Bular asosiga Davlat ta’lim standarti, dasturlar va darsliklarning yangi avlodlari yaratidi. Ta’limda rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanilmoqda. Ta’limni interfaol usullar asosida tashkil etishga oid tajribalar to‘planmoqda.

Jamiyat va ilm-fan tinimsiz taraqqiy etaveradi. Yangiliklar yaratilaveradi. Yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o‘qituvchisining vasifasidir. Zamonaivi pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni yuksaltiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma’naviy yuksalishida boshlang‘ich ta’limning o‘rnai beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar boshlang‘ich ta’lim orqali shakllanadi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq har bir o‘qituvchi interfaol metodlarni darsda qo‘llashga alohida e’tibor qaratmog’i joizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T., 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». –T., 1997.
3. G‘aniyeva T. Boshlang‘ich sinflarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Samarqand, 2008.
4. Grigoryans A.G. Atrofimizdagi olam. 1-2 sinf uchun. 2-nashr. –T.: «O‘qituvchi», 1998.
5. Grigoryans A.G., Bol’skaya Y.M. Tabiatshunoslik. 3-4-sinflar uchun. –T.: «O‘qituvchi», 1997.
6. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyl asoslari. –T.: «Fan», 2006.
7. Jurayev P., Turg‘unov S. Ta’lim menejmenti. –T.: «Voris-Nashriyot», 2006.
8. «Boshlang‘ich ta’lim» journali. 2009-y, 5- son.
9. «Maktab va hayot» journali. 2001-y, 3-4; 2005-y, 1-son.
10. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
11. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

S. ZOHIDOVA

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL TA'LIM STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2016

|                              |                  |
|------------------------------|------------------|
| Muharrir:                    | M.Hayitova       |
| Tex. muharrir:               | M.Holmuhamedov   |
| Musavvir:                    | D.Azizov         |
| Musahhih:                    | N.Hasanova       |
| Kompyuterda<br>sahifalovchi: | N.Raxmatullayeva |

E-mail: tipografiyaent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 18.11.2016.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 3,0. Nashriyot bosma tabog'i 3,25.

Tiraji 500. Buyurtma №227.

«Fan va texnologiyalar Markazining  
bosmaxonasi» da chep etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

**T**AN Vİ  
TEKNOLOGİYALAR

ISBN 978-9943-11-335-0

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-11-335-0.

9 7 8 9 9 4 3 1 1 3 3 5 0